

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ

ҚОНУНЧИЛИК

ТЎПЛАМИ

44-сон
(1220)
2025 йил
октябрь

Ўзбекистон Республикаси қонунчилик тўплами беш бўлимдан иборат:

биринчи бўлимда Ўзбекистон Республикаси қонунлари ва Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг қарорлари эълон қилинади;

иккинчи бўлимда Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармон ва қарорлари эълон қилинади;

учинчи бўлимда Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари эълон қилинади;

тўртинчи бўлимда Ўзбекистон Республикаси Конституциявий судининг қарорлари эълон қилинади;

бешинчи бўлимда вазирликлар, давлат қўмиталари ва идораларининг Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигида давлат рўйхатидан ўтказилган норматив-ҳуқуқий ҳужжатлари эълон қилинади.

МУНДАРИЖА

Иккинчи бўлим

662. «Фуқаро авиацияси соҳасида давлат сиёсати юритишни тартибга солиш чора-тадбирлари тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 27 октябрдаги ПФ–193-сон Фармони
663. «Стратегик режалаштириш ва ривожланиш тизимини жорий этиш бўйича ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 30 октябрдаги ПФ–201-сон Фармони
664. «Сунъий интеллект технологияларига асосланган лойиҳаларни қўллаб-қувватлашга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 30 октябрдаги ПҚ–320-сон қарори
665. «Халқаро шартномани тасдиқлаш тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 31 октябрдаги ПҚ–326-сон қарори

Учинчи бўлим

666. «Акциядорлик жамияти шаклидаги «O'zbekiston qayta sug'urta kompaniyasi» миллий қайта суғурта ташкилотини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2025 йил 27 октябрдаги 678-сон қарори
667. «Қашқадарё вилоятида Кўкдала туман 2-сон техникуми фаолиятини ташкил этиш тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2025 йил 28 октябрдаги 680-сон қарори

Бешинчи бўлим

668. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 18-oktabrdagi 405-son "Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi buyrug'i (*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 28-oktabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 1812-2*)
669. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Elektr energiyasi, neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi boshlig'ining 2025-yil 22-oktabrdagi 12-son "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Elektr energiyasi, neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi tomonidan qabul qilingan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida"gi buyrug'i (*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 28-oktabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2871-2*)
670. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025-yil 3-oktabrdagi 12-mh-son, Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 29-sentabrdagi 291-son, Sog'liqni saqlash vazirligining 2025-yil 26-sentabrdagi 11-son "Umumta'lim muassasalarida sinflarni komplektlash hamda tarifikatsiya ro'yxatlarini shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi qarori (*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 28-oktabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3271-1*)
671. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasining 2025-yil 10-oktabrdagi 25-son "Radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo'lishning xavfsizlik talablarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori (*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 28-oktabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3694*)
672. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasining 2025-yil 13-oktabrdagi 24-son

“Radiatsiyaviy manbalar xavfsizligini ta’minlash qoidalarini tasdiqlash to’g’risida”gi qarori (*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 28-oktabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3695*)

673. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Boshqaruv samaradorligi agentligi direktorining 2025-yil 16-oktabrdagi 2-2025-son “Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlari faoliyatining samaradorligini eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) asosida baholashning namunaviy tartibini tasdiqlash to’g’risida”gi buyrug‘i (*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 28-oktabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3696*)
674. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2025-yil 2-oktabrdagi 21/6-son “Banklar kapitalining monandligiga qo‘yiladigan talablar to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori (*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 28-oktabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3697*)
675. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2025-yil 9-oktabrdagi 25/1-son “Bank xizmatlari iste’molchilari bilan o‘zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo‘yiladigan minimal talablar to’g’risidagi nizomga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi qarori (*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 28-oktabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3030-11*)
676. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti boshlig‘ining 2025-yil 23-oktabrdagi 47-son “Qimmatbaho metall va qimmatbaho toshlar bilan bog‘liq bo‘lgan operatsiyalarni amalga oshiruvchi shaxslar uchun jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat qoidalariga o‘zgartirishlar kiritish to’g’risida”gi buyrug‘i (*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 30-oktabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 2034-8*)

Вазирликлар, давлат қўмиталари ва идораларнинг норматив-ҳуқуқий ҳужжатларини давлат рўйхатидан ўтказиш ҳолати тўғрисидаги маълумот

ИККИНЧИ БЎЛИМ

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ ФАРМОНИ

662 Фуқаро авиацияси соҳасида давлат сиёсати юритишни тартибга солиш чора-тадбирлари тўғрисида*

Ўзбекистон Республикасида фуқаро авиацияси соҳасини тизимли ислоҳ қилиш, авиация хизматлари сифатини ошириш, парвозлар хавфсизлигини таъминлаш, авиация соҳасини техник жиҳатдан тартибга солиш, рақобатни ривожлантириш ва авиаташувлар бозорини либераллаштириш, шунингдек, авиация соҳасида давлат сиёсати устуворлигини таъминлаш мақсадида **қарор қиламан:**

I. Мақсадлар

1. 2030 йилгача фуқаро авиацияси соҳасини ривожлантиришнинг асосий мақсадли кўрсаткичлари этиб қуйидагилар белгилансин.

(а) фуқаро авиациясида парвозлар хавфсизлигини таъминлаш соҳасида Халқаро фуқаро авиацияси ташкилотининг (кейинги ўринларда — ИКАО) 8 та йўналиш бўйича белгиланган талаблари бажарилишини ўртача 85 фоизга етказиш;

(б) ҳаво транспортида хизмат кўрсатилган йўловчилар сонини 24 миллион нафарга етказиш;

(в) халқаро ва маҳаллий йўналишдаги парвозлар сонини 200 мингтага етказиш;

(г) Ўзбекистон Республикаси резидент авиакомпаниялари ҳаво кемалари паркини 180 тага етказиш;

(д) Янги Тошкент халқаро аэропорти қурилиш ишларининг 1-босқичини амалга ошириш.

II. Фуқаро авиацияси соҳасини тартибга солишнинг асосий йўналишлари

2. Транспорт вазирлигига қуйидаги қўшимча вазифалар юклатилсин:

(а) фуқаро авиацияси ва аэропортлар соҳасида фаолият юритувчи субъектларнинг рақобатбардошлигини таъминлаш, парвозлар географияси-ни диверсификация қилиш, республика ҳудудидаги аэропорт хизматларининг жозибадорлигини таъминлаб бориш ва оммавий ахборот воситаларида доимий эълон қилиб бориш;

(б) фуқаро авиацияси ва аэропортлар фаолиятини ташкил этиш, инвести-

* Ушбу Фармон «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да 2025 йил 28 октябрда эълон қилинган.

циялар жалб қилинишини мувофиқлаштириш, халқаро молия институтлари ва хорижий давлат молия ташкилотлари билан ҳамкорлик қилиш;

(в) Ўзбекистон Республикаси фуқаро авиацияси соҳасида ИКАО ва халқаро ташкилотлар талабларининг миллий қонунчиликка татбиқ этилишини таъминлаш;

(г) Ўзбекистон Республикасининг фуқаро авиацияси соҳасидаги халқаро шартномаларида белгиланган талабларни бажариш;

(д) аҳоли мобиллигини ошириш, фуқаро авиацияси ташкилотлари томонидан кўрсатилаётган хизматлар сифатини яхшилаш, резидент авиакомпаниялар фаолиятини такомиллаштириш чораларини кўриш;

(ж) авиация ҳодисалари ва инцидентларни текшириш билан боғлиқ моддий-техник база ва лабораторияларни ташкил этиш;

(з) учувчи ва авиация мутахассисларини тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимини ташкил этиш;

(и) фуқаро авиацияси соҳасини ривожлантиришнинг узоқ муддатли стратегиясини ишлаб чиқиш ва назорат қилиш.

3. Фуқаро авиацияси агентлиги (кейинги ўринларда — «Ўзавиация» агентлиги)га қуйидаги қўшимча вазифалар юклатилсин:

(а) ИКАО стандартлари ва талабларининг тўлиқ амалиётга жорий этилишини таъминлаш ҳамда миллий қонунчилик ҳужжатларини мунтазам ҳатловдан ўтказган ҳолда такомиллаштириб бориш;

(б) авиация қоидаларини ИКАО ҳужжатларининг номи, тузилиши, рақамланиши ва мазмунини ҳисобга олган ҳолда ишлаб чиқиш ва тасдиқлаш;

(в) ИКАО талабларига мувофиқ «Ўзавиация» агентлигининг молиявий мустақиллиги ва моддий-техник базасини таъминлаш ҳамда инспекторлар фаолияти ва таркибини шакллантириш, уларнинг малакасини ошириш ва қайта тайёрлашни тизимли ташкил этиш;

(г) ИКАО талабларига мувофиқ фуқаро авиацияси ходимларини тиббий кўрикдан ўтказишни ташкил этиш.

4. «Ўзаэронавигация» маркази ДУКга қуйидаги қўшимча вазифалар юклатилсин:

(а) радиолокация, радионавигация, алоқа ускуналари ва автоматлаштирилган ҳаво ҳаракатини бошқариш тизимларини модернизация қилиш ҳамда замонавий технологик ускуналар билан жиҳозлаб бориш;

(б) аэронавигация ва ҳаводаги ҳаракатга хизмат кўрсатиш тўлов ва йиғимларини барча фойдаланувчилар учун халқаро тажрибадан келиб чиқиб, ИКАО стандарт ва тавсиялари асосида шакллантириш;

(в) ИКАО стандартлари асосида ҳаво ҳудудида тавсифларга асосланган навигация тизимини (PBN) жорий этиш.

5. Белгилансинки, «Ўзаэронавигация» маркази ДУК Ўзбекистон Республикаси ҳаво ҳудудида фуқаро авиациясида ҳаводаги ҳаракатга хизмат кўрсатиш бўйича ваколатли орган ҳамда аэронавигация хизматларини таъминловчи ҳисобланади.

6. Парвозлар хавфсизлиги назорати бўйича юклатилган вазифа ва функцияларнинг ўз вақтида, сифатли ва тўлақонли амалга оширилишини таъ-

минлаш, ИCAO олдидаги Ўзбекистон томонидан олинган мажбуриятларни тўлиқ бажариш мақсадида «Ўзавиация» агентлигига қўшимча 51 та штат бирликлиги ажратилиб, бошқарув ходимларининг чекланган сони 109 нафар этиб белгилансин. Бунда «Ўзавиация» агентлигига ажратилган қўшимча штат бирликлари доирасида хорижий мутахассислар (умумий чекланган штат бирликларининг 25 фоизидан кўп бўлмаган ҳолда) жалб қилинишига рухсат берилсин.

7. Ислом Каримов номидаги Тошкент халқаро аэропортининг Тиббий учиш эксперт комиссияси тугатилиб, ИCAO талабларига мувофиқ 2026 йил 1 апрелдан бошлаб қўшимча ажратиладиган штатлар доирасида «Ўзавиация» агентлигида фуқаро авиацияси ходимларини тиббий кўрикдан ўтказишга ихтисослашган Авиация тиббиёти бўлими ташкил этилсин. Бунда:

(а) мазкур бўлим фаолиятини ташкил этиш ва уни сақлаш билан боғлиқ сарф-харажатлар кўрсатиладиган пуллик хизматлардан ҳамда «Ўзавиация» агентлигининг бюджетдан ташқари жамғармаси ҳисобидан молиялаштирилади;

(б) мазкур бўлимнинг асосий вазифалари ва функциялари ИCAO талабларидан келиб чиқиб «Ўзавиация» агентлиги томонидан тасдиқланади.

III. Имтиёзлар ва молиявий ресурслар

8. Белгилансинки, резидент авиакомпаниялар томонидан йўловчи ҳамда юк ташиш ҳаво кемаларини Ўзбекистон Республикаси ҳудудига импорт қилишда улар божхона божи ва қўшилган қиймат солиғидан озод этиладиган технологик асбоб-ускуналар рўйхатига киритилади.

9. Иқтисодиёт ва молия вазирлиги Транспорт вазирлиги билан биргаликда 2026 — 2028 йилларда Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий ва ишлаб чиқариш инфратузилмасини ривожлантириш дастурларини шакллантиришда Давлат бюджети маблағлари ҳисобидан аэродром ва ҳаводаги ҳаракатни бошқариш комплексларини модернизация қилиш, шунингдек, парвозларни радиотехник таъминлаш ускуналарини харид қилиш ҳамда аэропортларнинг аэродром комплексларини қуриш, капитал таъмирлаш ва реконструкция ишлари учун 3 йил давомида ҳар йили 250 миллиард сўм миқдорида маблағлар ажратилишини таъминласин.

10. Транспорт вазирлиги ҳамда Иқтисодиёт ва молия вазирлигининг Транспорт вазирлиги ҳузурида юридик шахс ташкил этмаган ҳолда Авиация соҳасини қўллаб-қувватлаш жамғармасини ташкил этиш тўғрисидаги таклифи маъқуллансин. Бунда республика ҳудудидаги барча аэропортларда халқаро йўналишлардаги парвозлардан аэропорт йиғимлари ҳисобидан ажратмалар Авиация соҳасини қўллаб-қувватлаш жамғармаси даромадлари манбаи этиб белгилансин.

11. Жамғарма маблағлари сарфланишининг асосий йўналишлари этиб қуйидагилар белгилансин:

(а) ИCAO талабларига мувофиқ «Ўзавиация» агентлиги фаолиятини ташкил этиш ва сақлаш ҳамда молиявий мустақиллигини таъминлаш;

(б) учувчилар ва борт кузатувчиларини тайёрлаш ўқув юрти фаолиятини ташкил этиш, моддий-техника базасини яратиш ҳамда сақлаш ишларини молиялаштириш;

(в) учувчи, борт кузатувчилари ҳамда бошқа авиация мутахассисларини тайёрлаш ишларини рағбатлантириш;

(г) авиация ходисалари ва инцидентларни текшириш билан боғлиқ харажатларни молиялаштириш ҳамда моддий-техника базаси ва лабораторияларини ташкил этиш.

12. Белгилансинки:

(а) 2026 йил 1 январдан бошлаб «Ўзавиация» агентлигини сақлаш учун Давлат бюджетидан ажратмалар бекор қилинади;

(б) 2025 йил якуни ва келгуси йиллар учун «Ўзаэронавигация» маркази ДУК соф фойдасидан Фуқаро авиацияси агентлигини ривожлантириш жамғармасига йўналтириладиган 20 фоиз ажратма бекор қилинади.

IV. Фуқаро авиацияси объектларидан фойдаланишни тартибга солиш

13. Шундай тартиб ўрнатилсинки, унга мувофиқ:

(а) мутасадди органлар томонидан аэропортлар ер участкаларида шаҳар-созлик ишлари ИКАО парвозлар хавфсизлиги талабларига мувофиқ «Ўзавиация» агентлиги билан келишилган ҳолда амалга оширилади;

(б) аэропорт инфратузилмасини ривожлантириш эҳтиёжлари учун ер участкалари белгиланган тартибда Давлат активларини бошқариш агентлигига доимий фойдаланишга берилади;

(в) Мудофаа вазирлиги ва «Ўзаэронавигация» маркази ДУК республика ҳудудида жойлашган фуқаро ва давлат авиацияси аэродромларида ўрнатилган радиолокация, радионавигация, алоқа ускуналари, аэронавигация ва ҳаводаги ҳаракатга хизмат кўрсатиш маълумотларидан бепул ва ўзаро ҳамкорликда фойдаланади.

V. Фуқаро авиацияси соҳасида ислохотларни изчил давом эттириш

14. Транспорт вазирлиги манфаатдор вазирлик ва идоралар билан биргаликда қуйидаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини ишлаб чиқиб, ўрнатилган тартибда Вазирлар Маҳкамасига киритсин:

(а) бир ой муддатда Ўзбекистон Республикаси фуқаро авиацияси соҳасида давлат сиёсатини юритиш маъмурий регламентини тасдиқлаш тўғрисидаги Ҳукумат қарори лойиҳаси;

(б) бир ой муддатда Ўзбекистон Республикасининг ҳаводаги ҳаракатни бошқариш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисидаги Ҳукумат қарори лойиҳаси;

(в) икки ой муддатда учувчилар ва борт кузатувчиларини тайёрлаш ўқув юртини ташкил қилиш бўйича Ҳукумат қарори лойиҳаси;

(г) икки ой муддатда Авиация соҳасини қўллаб-қувватлаш жамғармаси

маблағларини жамлаш ва тақсимлаш бўйича низомни тасдиқлаш тўғрисидаги Хукумат қарори лойиҳаси;

(д) уч ой муддатда фуқаро авиацияси қоидаларини бузиш билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар рўйхатини такомиллаштириш ҳамда жавобгарликни кучайтиришни назарда тутувчи Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисидаги қонун лойиҳаси;

(ж) 2026 йил 1 октябрга қадар ИСАО талабларидан келиб чиққан ҳолда ҳамда хорижий тажриба асосида янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикасининг Ҳаво кодекси лойиҳаси.

15. Транспорт вазирлиги резидент авиакомпаниялар томонидан кўрсатилаётган хизматлар сифатини ошириш ва улар устидан назоратни кучайтириш мақсадида:

(а) икки ой муддатда резидент авиакомпанияларнинг халқаро йўналишларда парвозларни амалга оширувчи ҳаво кемаларининг техник ва ички интерьер ҳолатини яхшилаш бўйича чора-тадбирлар режасини ишлаб чиқсин;

(б) икки ой муддатда резидент авиакомпаниялар ҳаво кемаларининг базавий техник хизмат даврида барча носозликлар бартараф этилиши бўйича талабларни ишлаб чиқсин;

(в) уч ой муддатда йўловчилардан таклиф ва эътирозларни қабул қилиш ҳамда йўловчи авиақатновларида содир бўлган авиация ҳодисалари ва инцидентлар билан таништириш ва изоҳ бериш учун «Ўзавиация» агентлигида истеъмолчилар билан ишлаш ахборот тизими (CRM) ва Call-марказни ишга туширсин;

(г) олти ой муддатда сертификатланган эҳтиёт қисмларини етказиб берувчилар билан жамланган (Pool) шартномалар тузиш тизимини йўлга қўйсин;

(д) икки ой муддатда резидент авиакомпаниялар томонидан халқаро қатновларни амалга ошириш жараёнида ташқи пудратчилар томонидан кўрсатиладиган хизматлар (кетринг, йўловчи ва ҳаво кемаларига хизмат кўрсатиш) сифатини ошириш чораларини ишлаб чиқсин;

(ж) уч ой муддатда авиакомпаниялар ва аэропортлар томонидан кўрсатиладиган хизматларни мониторинг қилиш ва такомиллаштиришнинг халқаро баҳолаш тизимини (Sky trax) жорий этиш бўйича таклифлар ишлаб чиқиб Вазирлар Маҳкамасига киритсин;

(з) доимий равишда резидент авиакомпаниялар томонидан белгиланган парвоз жадвалларига қатъий риоя этилиши бўйича таъсирчан чоралар қўласин.

16. Ҳисоб палатаси Рақобатни ривожлантириш ва истеъмолчилар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш қўмитаси, Транспорт вазирлиги, Иқтисодиёт ва молия вазирлиги билан биргаликда 2026 йил 1 августга қадар авиация бозорида устун мавқега эга бўлган хўжалик юритувчи субъектлар ҳамда табиий монополиялар субъектлари бўлган барча аэропортлар, устав капиталида 50 фоиз ва ундан ортиқ миқдорда давлат улуши мавжуд бўлган авиакомпаниялар ҳамда «Ўзаэронавигация» маркази ДУКнинг фаолиятларини ўрганиб

чиқиб Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрациясига ахборот киритсин.

17. Ўзбекистон Республикаси Президентининг айрим ҳужжатларига иловага мувофиқ ўзгартириш ва қўшимчалар киритилсин.

18. Транспорт вазирлиги манфаатдор вазирлик ва идоралар билан бир-галикда икки ой муддатда қонунчилик ҳужжатларига мазкур Фармондан келиб чиқадиган ўзгартириш ва қўшимчалар тўғрисида Вазирлар Маҳкамасига таклифлар киритсин.

VI. Фармон ижросини ташкил этиш, таъминлаш ва назорат

19. Мазкур Фармоннинг ижросини самарали ташкил қилишга масъул ва жавобгар этиб Бош вазир ўринбосари А.Ж. Раматов ҳамда транспорт вазири И.Р. Маҳкамов белгилансин.

20. Фармон ижросини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазири А.Н. Арипов зиммасига юклансин.

Ўзбекистон Республикаси
Президенти

Ш. МИРЗИЁЕВ

Тошкент ш.,
2025 йил 27 октябрь,
ПФ–193-сон

Ўзбекистон Республикаси
Президентининг 2025 йил 27 октябрдаги
ПФ–193-сон Фармониغا
ИЛОВА

Ўзбекистон Республикаси Президентининг айрим ҳужжатларига
киритилаётган ўзгартириш ва қўшимчалар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 25 январдаги «Республика ижро этувчи ҳокимият органлари фаолиятини самарали йўлга қўйишга доир биринчи навбатдаги ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПФ–14-сон Фармониغا 1-иловада «7. Транспорт вазирлиги» бўлимининг «2. Фуқаро авиацияси агентлиги» позицияси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«

2.	Фуқаро авиацияси агентлиги	109		109
шу жумладан, директор ўринбосарлари сони		1		1

».

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 15 майдаги «2025-2026 йилларда сайёҳлар оқимини кескин кўпайтириш ва туристик хизматлар кўламини жадал кенгайтириш орқали туризмнинг иқтисодийтадаги ўрни ва

аҳамиятини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ–87-сон Фармонига 1-иловининг 2-позицияси «Масъул ижрочилар» устуни «Туризм қўмитаси» сўзларидан кейин «, «Uzbekistan airways» АЖ, «Uzbekistan Airports» АЖ, барча резидент авиакомпаниялар» сўзлари билан тўлдирилсин.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 22 сентябрдаги «Фуқаро авиацияси корхоналарини қўллаб-қувватлашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ–309-сон қарорининг 1-бандидаги «Ўзбекистон Республикасининг резидент авиакомпаниялари ва уларнинг таркибидаги корхоналар» сўзлари «Ўзбекистон Республикаси фуқаро авиацияси ташкилотлари» сўзлари билан алмаштирилсин.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 27 февралдаги «Хизматлар соҳаси барқарор ривожланиши учун қулай шарт-шароитлар яратишга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ–78-сон қарорига 5-иловининг 29-позицияси «Масъул ижрочилар» устуни «Uzbekistan Airports» АЖ» сўзларидан кейин «, «Ўзаэронавигация» маркази ДУК» сўзлари билан тўлдирилсин.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ
ФАРМОНИ

663 **Стратегик режалаштириш ва ривожланиш тизимини жорий этиш бўйича ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида***

Республикада стратегик режалаштириш ва ривожланишнинг ягона ва комплекс тизимини шакллантириш, стратегик аҳамиятга эга ҳужжатларни ишлаб чиқиш, амалга ошириш, мониторинг қилиш ва самарадорлигини баҳолашнинг барқарор ва самарали механизмларини жорий этиш, ушбу соҳада вазирликлар, идоралар, барча даражадаги маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органлари, шунингдек, таҳлилий марказлар ва илмий-тадқиқот муассасаларининг келишилган ҳолда фаолиятини таъминлаш мақсадида **қарор қиламан:**

I. Мақсад ва вазифалар

1. 2025 йил 1 ноябрдан бошлаб «мақсад — ҳаракат — натижа» занжири асосида стратегик аҳамиятга эга ҳужжатларни ишлаб чиқиш, амалга ошириш, мониторинг қилиш ва баҳолашни ўз ичига олган стратегик режалаштириш ва ривожланиш тизими жорий этилсин.

2. Қуйидагилар стратегик режалаштириш ва ривожланиш тизимининг асосий вазифалари этиб белгилансин:

(а) стратегик аҳамиятга эга ҳужжатларни ишлаб чиқиш, амалга ошириш, мониторинг қилиш ва самарадорлигини баҳолашнинг барқарор ва самарали механизмини шакллантириш;

(б) стратегик режалаштириш ва ривожланиш ҳужжатларининг ягона иерархияси ва ўзаро мувофиқлигини таъминлаш;

(в) стратегик режалаштириш ва ривожланиш соҳасида вазирликлар, идоралар ва маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органларининг ўзаро ҳамкорлиги тартиби, ваколатлари, функционал вазифалари ва жавобгарлик чегараларини белгилаш;

(г) чуқур илмий тадқиқотлар, тенденциялар ва прогнозларни холисона таҳлил қилиш асосида давлат сиёсатининг стратегик устуворликларини шакллантириш ва амалга ошириш;

(д) аниқ, шаффоф ва ўлчанадиган кўрсаткичларга асосланган стратегик мақсадларга эришиш самарадорлигини мониторинг қилиш ва баҳолаш тизимини жорий этиш;

(ж) соҳалар, тармоқлар ва ҳудудларни ривожлантиришга янгича ёндашувларни жорий этиш, замонавий форматлар ва инновацион усуллар асосида ишларни ташкил қилиш;

(з) стратегик таҳлил ва режалаштириш соҳасида юқори малакали кадрлар янги авлодини тайёрлашнинг интеграциялашган тизимини яратиш.

* Ушбу Фармон «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да 2025 йил 1 ноябрда эълон қилинган.

II. Стратегик режалаштириш ва ривожланиш тизимини жорий этиш

3. Стратегик режалаштириш ҳужжатларининг иерархияси қуйидаги тартибда белгилансин:

(а) биринчи даражали стратегик режалаштириш ҳужжатлари мамлакатни, унинг ҳудудларини ижтимоий-иқтисодий, ижтимоий-сиёсий ривожлантиришда давлат сиёсатини шакллантириш ва амалга ошириш билан боғлиқ устувор йўналишларни, бошқарувнинг концептуал ёндашувларини белгиловчи концепциялар шаклида қабул қилинади. Бунда концепция мувофиқлаштириш, ресурслар билан таъминлаш ва уларни амалга ошириш самарадорлигини баҳолашнинг умумий механизмларини ўз ичига олган муайян стратегияларни ишлаб чиқиш учун асос бўлиб ҳисобланади;

(б) иккинчи даражали стратегик режалаштириш ҳужжатлари ўрта ва узоқ муддатли истиқболда мамлакат, ҳудуд, тармоқ ёки давлат ва жамият ҳаётининг бошқа соҳасини ривожлантиришнинг мақсади, вазифалари, мақсадли кўрсаткичларига эришишга қаратилган ҳамда уларни амалга оширишнинг аниқ белгиланган механизмлари ва ресурсларини ўз ичига олган стратегиялар шаклида қабул қилинади;

(в) учинчи даражали стратегик режалаштириш ҳужжатлари стратегиянинг мақсад ва вазифаларига эришишга қаратилган ўзаро боғлиқ батафсил чора-тадбирлар мажмуини белгиловчи дастурлар («йўл хариталари», чора-тадбирлар режалари) шаклида қабул қилинади.

4. Белгилансинки:

(а) биринчи даражали стратегик режалаштириш ҳужжатлари 7 йилдан ортиқ муддатга ишлаб чиқилади ва қоида тариқасида Ўзбекистон Республикаси қонунлари билан тасдиқланади;

(б) иккинчи даражали стратегик режалаштириш ҳужжатлари 4 йилдан 7 йилгача бўлган муддатга ишлаб чиқилади ва Ўзбекистон Республикаси Президентининг ҳужжатлари билан тасдиқланади. Бунда «Ўзбекистон — 2030» стратегияси ва бошқа шу каби кенг қамровли стратегик режалаштириш ҳужжатлари нисбати бўйича муайян ёки бир неча соҳа, тармоқ ёки ҳудуд бўйича стратегик режалаштириш ҳужжатларидан юқори ҳисобланади;

(в) учинчи даражали стратегик режалаштириш ҳужжатлари 1 йилдан 3 йилгача бўлган муддатга ишлаб чиқилади ва қуйидаги тартибда тасдиқланади:

(i) «Ўзбекистон — 2030» стратегияси ва бошқа шу каби кенг қамровли стратегик режалаштириш ҳужжатларини амалга ошириш бўйича Ўзбекистон Республикаси Президентининг ҳужжатлари;

(ii) иккинчи даражали бошқа стратегик режалаштириш ҳужжатларини амалга ошириш бўйича Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари қабул қилинади.

5. Стратегик режалаштириш ва ривожланиш тизимини жорий этишга қаратилган биринчи навбатдаги чора-тадбирларни амалга ошириш бўйича «йўл харитаси» 1-иловага* мувофиқ тасдиқлансин.

* 1-илова «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

III. Стратегик режалаштириш ва ривожланиш тизимини мувофиқлаштириш

6. Қуйидагилар:

(а) Таҳлилий ва тадқиқот тузилмалари фаолиятини ташкил қилиш бўйича мувофиқлаштирувчи кенгаш Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Стратегик режалаштириш ва ривожланиш бўйича мувофиқлаштирувчи кенгаш (кейинги ўринларда — Мувофиқлаштирувчи кенгаш) этиб;

(б) Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Стратегик ислохотлар агентлиги Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Стратегик ривожланиш ва ислохотлар агентлиги (кейинги ўринларда — Агентлик) этиб;

(в) Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Стратегик ислохотлар агентлигини қўллаб-қувватлаш жамғармаси Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Стратегик ривожланиш ва ислохотлар агентлигини қўллаб-қувватлаш жамғармаси (кейинги ўринларда — Жамғарма) этиб қайта ташкил этилсин.

7. Мувофиқлаштирувчи кенгашга қуйидаги қўшимча вазифалар юклатилсин:

(а) ижтимоий-иқтисодий, ижтимоий-сиёсий, технологик, гуманитар, экологик ва бошқа соҳалардаги долзарб муаммолар ҳамда чақириқларни таҳлил қилиш, уларни ҳал этиш бўйича таклифлар ишлаб чиқиш, шунингдек, мамлакатни стратегик ривожлантириш бўйича ғоя ва ташаббусларни шакллантириш;

(б) «Ўзбекистон — 2030» стратегияси, концепциялар, стратегиялар ва дастурлар («йўл хариталари», чора-тадбирлар режалари) билан мувофиқлигини таъминлаш нуктаи назаридан стратегик ташаббусларни ишлаб чиқиш ва экспертизадан ўтказишни мувофиқлаштириш;

(в) концепциялар, стратегиялар ва дастурларнинг («йўл хариталари», чора-тадбирлар режалари) «Ўзбекистон — 2030» стратегияси мақсадлари билан тўлиқ боғлиқлиги ва уйғунлигини таъминлаш, шунингдек, уларнинг амалга оширилиши самарадорлигини мониторинг қилиш ва баҳолаш;

(г) жамият ва давлат ҳаётининг турли соҳалари кесимида мамлакат ривожланишини узоқ муддатли режалаштириш бўйича фаолиятни ташкил этиш.

8. Белгилаб қўйилсинки:

(а) Мувофиқлаштирувчи кенгаш вазирлик ва идоралар, маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органлари, шунингдек, давлат таҳлилий марказлари ва илмий-тадқиқот муассасаларининг стратегик режалаштириш ва ривожланиш соҳасидаги фаолиятини мувофиқлаштириш учун масъул бўлган идоралараро коллегиал орган ҳисобланади;

(б) Мувофиқлаштирувчи кенгаш мажлисларида мамлакатни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш ҳамда тегишли соҳаларда комплекс ислохотларни чуқурлаштириш ва либераллаштириш борасидаги стратегик масалалар юзасидан ишлаб чиқилган норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларининг мақсадга мувофиқлиги кўриб чиқилади;

(в) Мувофиқлаштирувчи кенгаш мажлисларида қабул қилинган қарорлар барча давлат органлари ва ташкилотлари томонидан бажарилиши мажбурий бўлган баённомалар билан расмийлаштирилади;

(г) Мувофиқлаштирувчи кенгаш биринчи ва иккинчи даражали стратегик режалаштириш ҳужжатлари лойиҳаларини уларни қабул қилишнинг мақсадга мувофиқлиги нуқтаи назаридан кўриб чиқади. Бунда маъқулланган лойиҳалар кўриб чиқиш учун Ўзбекистон Республикаси Президентига киритилади;

(д) Агентлик, шунингдек, мазкур Фармоннинг 2-иловасига мувофиқ рўйхатдаги таҳлилий марказлар ва илмий-тадқиқот муассасалари низомлари (уставлари) ва йиллик иш режалари, хорижий тадбирларда иштирок этиш дастурлари ҳамда тузилмалари Мувофиқлаштирувчи кенгаш билан келишилган ҳолда тасдиқланади;

(ж) Мувофиқлаштирувчи кенгаш Агентлик, шунингдек, мазкур Фармоннинг 2-иловасига мувофиқ рўйхатдаги таҳлилий марказлар ва илмий-тадқиқот муассасалари тузилмаларига ўзгартиришлар киритиш, шу жумладан, Мувофиқлаштирувчи кенгаш ҳузуридаги Тадқиқотларни қўллаб-қувватлаш жамғармаси, Стратегик ривожланиш ва ислохотлар агентлигини қўллаб-қувватлаш жамғармаси маблағлари, шунингдек, қонунчилик ҳужжатларида тақиқланмаган бюджетдан ташқари бошқа манбалар ҳисобидан молиялаштириладиган қўшимча штат бирликларини киритиш ҳуқуқига эга;

(з) давлат таҳлилий марказлари ва илмий-тадқиқот муассасаларига қонунчилик ҳужжатларида ҳамда уларнинг йиллик иш режаларида назарда тутилмаган бошқа вазифалар, функциялар ва топшириқлар юкланишига йўл қўйилмайди.

IV. Стратегик режалаштириш ва ривожланиш соҳасида бошқарув тизимини такомиллаштириш

9. Белгилансинки, Агентлик:

(а) стратегик режалаштириш ва ривожланиш тизимини ташкил этиш, уни самарали жорий қилишга қаратилган аниқ механизмларни ишлаб чиқиш, шунингдек, стратегик режалаштириш ҳужжатлари лойиҳаларини тайёрлашни тартибга солиш бўйича ваколатли давлат органи;

(б) Мувофиқлаштирувчи кенгашнинг ишчи органи ҳисобланади.

10. Агентликка 3-иловага мувофиқ қўшимча вазифалар юклатилсин.

11. Мувофиқлаштирувчи кенгашга Агентлик ҳузурида қуйидагиларни ташкил этиш бўйича қарорлар қабул қилиш ҳуқуқи берилсин:

(а) иқтисодиётнинг асосий тармоқлари, шунингдек, алоҳида соҳалар ва йўналишларда жорий ҳолатни ўрганиш ҳамда уларни модернизация қилиш, инновацион ва барқарор ривожлантиришга қаратилган стратегиялар, таклифлар ва ташаббусларни ишлаб чиқиш учун соҳалар ва тармоқларни ривожлантириш масалалари бўйича лойиҳа офислари;

(б) ҳудудларни комплекс ривожлантириш бўйича жорий ҳолатни ўрганиш ҳамда стратегиялар, таклифлар ва ташаббусларни ишлаб чиқиш, шунингдек,

уларнинг ҳудудий режалаштириш билан мувофиқлигини таъминлаш учун ҳудудий ривожланиш масалалари бўйича лойиҳа офислари;

(в) Ўзбекистон Республикасининг ташқи алоқалари ва экспорт салоҳиятини ривожлантириш, инвестицияларни жалб этиш, шунингдек, халқаро ташкилотлар ва молия институтлари билан ўзаро ҳамкорлик қилиш соҳасидаги жорий ҳолатни ўрганиш ҳамда таклифлар ва ташаббусларни ишлаб чиқиш учун халқаро ҳамкорлик масалалари бўйича лойиҳа офислари.

12. Белгилансинки:

(а) тизимда, соҳада ёки тармоқда мавжуд моделни тубдан ўзгартириш, институционал, таркибий, ҳуқуқий ва функционал янгилаш орқали комплекс ва барқарор ривожланишни таъминлашга, бошқарувнинг, бозор механизмларининг ёки ижтимоий хизматларнинг сифат жиҳатидан янги моделини шакллантиришга қаратилган, стратегик режалаштириш ҳужжати ҳисобланмайдиган ҳужжатлар лойиҳалари мазкур Фармоннинг 4-иловасида* белгиланган мезонларга мувофиқ стратегик ислохотларни назарда тутувчи норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳалари ҳисобланади;

(б) стратегик ислохотларни назарда тутувчи норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳалари ваколатли давлат органлари томонидан Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрациясига киритилгунига қадар Агентлик билан келишилади, бунда ушбу тартибга риоя этмаган ҳолда киритилган лойиҳалар кўриб чиқилмайди;

(в) ҳуқуқий экспертиза яқунлари бўйича стратегик ислохотларни назарда тутувчи норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини Агентлик билан келишиш тўғрисида Адлия вазирлиги томонидан тавсиялар берилади;

(г) Агентлик таҳлилий марказлар ва илмий-тадқиқот муассасалари билан ҳамкорликда стратегик ислохотларни назарда тутувчи норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини кўриб чиқади ва натижаларга кўра қуйидагилар бўйича ҳулоса беради:

(i) лойиҳани қабул қилишнинг асослантирилганлиги, белгиланган устувор йўналишлар ва мақсадларни амалга оширишга йўналтирилганлиги, «Ўзбекистон — 2030» стратегияси, шунингдек, бошқа тармоқ ва ҳудудий стратегияларга мувофиқлиги;

(ii) мақсадларнинг ва улар билан боғлиқ вазифалар, чора-тадбирлар, амалга ошириш механизмлари ва воситалари, амалдаги ва ўлчанадиган мақсадли кўрсаткичлар, шунингдек, муддатлар ва уларга эришиш учун масъулларнинг белгиланганлиги;

(iii) белгиланган вазифалар, кўрсаткичлар ва чора-тадбирларни амалга оширишда молиявий-иқтисодий, моддий-техник ва бошқа ресурсларнинг кўзда тутилганлиги;

(iv) рақамлаштириш, коррупциянинг олдини олиш ва бюрократияни камайитириш, очиқлик ва жамоатчилик иштирокини кенгайтириш, гендер тенглик, хусусий секторни жалб қилиш бўйича чора-тадбирлар қамраб олинганлиги;

* 4-илова «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

(v) белгиланган вазифаларнинг амалга оширилишини мониторинг қилиш ва баҳолаш, ҳисобдорлик механизмлари мавжудлиги.

V. Стратегик режалаштириш ва ривожланиш тизимини илмий-услубий жиҳатдан ва кадрлар билан таъминлаш

13. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Қонунчилик ва ҳуқуқий сиёсат институтига (кейинги ўринларда — Институт) қуйидаги қўшимча вазифалар юклатилсин:

(а) стратегик режалаштириш ва ривожланишнинг илмий-услубий ва сиёсий-ҳуқуқий асосларини ишлаб чиқиш ва такомиллаштириш;

(б) таҳлилий марказлар ва илмий-тадқиқот муассасалари томонидан стратегик режалаштириш ва ривожланишнинг илмий-услубий ва сиёсий-ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш соҳасида ўтказиладиган илмий ва таҳлилий тадқиқотларни мувофиқлаштириш;

(в) стратегик режалаштириш ва ривожланишнинг сиёсий-ҳуқуқий асослари соҳасида юқори малакали таҳлилчи-мутахассислар тайёрлаш.

VI. Ташкилий чора-тадбирлар

14. Белгилансинки:

(а) Агентлик вазирлик ва идораларнинг стратегик режалаштириш бўйича таркибий бўлинмалари, шунингдек, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликларининг ахборот-таҳлил гуруҳлари фаолиятини мувофиқлаштиради;

(б) вазирлик ва идораларнинг стратегик режалаштириш бўйича таркибий бўлинмалари, шунингдек, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликларининг ахборот-таҳлил гуруҳлари раҳбарларига тегишли идора раҳбари маслаҳатчиси мақоми берилади, уларни лавозимга тайинлаш ва лавозимидан озод этиш Агентлик билан мажбурий тартибда келишилади;

(в) вазирлик ва идоралар, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликларининг бюджетдан ташқари маблағлари ҳисобидан стратегик режалаштириш бўйича таркибий бўлинмалар, шунингдек, ахборот-таҳлил гуруҳлари ходимлари йилига камида бир марта Давлат сиёсати ва бошқаруви академиясида стратегик режалаштириш ва ривожланиш, таҳлил ва натижадорликни бошқариш бўйича махсус ўқув курсларида ўқитилади.

15. Шундай тартиб ўрнатилсинки, унга мувофиқ 2026 йилдан бошлаб «Ўзбекистон — 2030» стратегиясини амалга оширишга оид қабул қилинадиган ҳар йилги давлат дастурига ишлаб чиқиладиган стратегик ислохотларни назарда тутувчи норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳалари рўйхати киритилади. Бунда Агентлик мазкур рўйхатдаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни ишлаб чиқиш ва келишиш жараёнларини мувофиқлаштириб боради.

16. Агентлик Ўзбекистон Республикаси Президентининг стратегик ривожланиш бўйича маслаҳатчиси бўлинмалари билан биргаликда маҳаллий

ва хорижий консултантларни жалб қилган ҳолда икки ой муддатда қуйидагиларни назарда тутувчи Ўзбекистон Республикаси Президентининг ҳужжати лойиҳасини киритсин:

(а) стратегик режалаштиришни ташкил этиш, стратегик режалаштириш ҳужжатларини ишлаб чиқиш, келишиш ва амалга оширилишини мониторинг қилиш тартиби;

(б) режалаштириш, маълумотларни тўплаш, асосий самарадорлик кўрсаткичларини (KPI) мониторинг қилиш, муаммоларни аниқлаш, прогнозли таҳлил ўтказиш ва стратегик режалаштириш ҳужжатларига тузатишлар киритиш имконини берувчи рақамли платформани (dashboard) ишлаб чиқиш;

(в) вазирлик ва идоралар томонидан ягона, комплекс ва тизимли ёндашув асосида стратегик режалаштириш ҳужжатларини ишлаб чиқиш, ҳисоботларни тақдим этиш ва уларнинг амалга оширилишини мониторинг қилиш, шунингдек, ушбу ҳужжатларнинг бажарилишини баҳолаш тизимини жорий этиш бўйича ташкилий чора-тадбирлар дастури;

(г) юклатилаётган қўшимча вазифаларни инобатга олган ҳолда Агентлик ва Жамғарма фаолиятини ташкил этиш тартиби;

(д) давлат бошқарувида стратегик режалаштириш ва ривожланиш соҳасида малакали кадрлар тайёрлаш тизимини йўлга қўйиш.

VII. Фармон ижросини ташкил қилиш, таъминлаш ва назорат

17. Ўзбекистон Республикаси Президентининг айрим ҳужжатларига 5-иловага* мувофиқ ўзгартириш ва қўшимчалар киритилсин.

18. Адлия вазирлиги уч ой муддатда манфаатдор вазирлик ва идоралар билан биргаликда қонунчилик ҳужжатларига ушбу Фармондан келиб чиқадиган ўзгартириш ва қўшимчалар тўғрисида таклифлар киритсин.

19. Мазкур Фармоннинг ижросини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Президентининг стратегик ривожланиш бўйича маслаҳатчиси С.У. Умурзаков зиммасига юклансин.

**Ўзбекистон Республикаси
Президенти**

Ш. МИРЗИЁЕВ

Тошкент ш.,
2025 йил 30 октябрь,
ПФ–201-сон

* 5-илова «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

Ўзбекистон Республикаси
Президентининг 2025 йил 30 октябрдаги
ПФ–201-сон Фармонига
2-ИЛОВА

**Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Стратегик
режалаштириш ва ривожланиш бўйича мувофиқлаштирувчи
кенгаш томонидан фаолияти ташкиллаштириладиган таҳлилий
марказлар ва илмий-тадқиқот муассасалари
РЎЙХАТИ**

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Стратегик ва минтақалараро тадқиқотлар институти
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Қонунчилик ва ҳуқуқий сиёсат институти
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Иқтисодий тадқиқотлар ва ислохотлар маркази
4. Олий Мажлис Қонунчилик палатаси ҳузуридаги Парламент тадқиқотлари институти
5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Макро-иқтисодий ва ҳудудий тадқиқотлар институти
6. Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси
7. Марказий Осиё халқаро институти
8. Ўзбекистон Республикаси Ташқи ишлар вазирлиги ҳузуридаги Халқаро муносабатлар ахборот-таҳлилий маркази
9. Оила ва гендер илмий-тадқиқот институти
10. Ўзбекистон Республикаси Криминология тадқиқот институти

Ўзбекистон Республикаси
Президентининг 2025 йил 30 октябрдаги
ПФ–201-сон Фармони
3-ИЛОВА

**Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги
Стратегик ривожланиш ва ислохотлар агентлигига
юклатиладиган қўшимча вазифалар
РЎЙХАТИ**

1. Тармоқлар ва ҳудудлар ривожланишининг жорий ҳолати, Ўзбекистон Республикасининг бошқа мамлакатлар ҳамда халқаро ташкилотлар ва институтлар билан ҳамкорлиги самарадорлиги тўғрисида ахборот тўплаш ва тизимли таҳлил қилиш, шунингдек, мамлакатнинг комплекс ва проактив ривожланишини таъминлашга қаратилган таклиф ва ташаббусларни ишлаб чиқиш.

2. Стратегик режалаштириш ҳужжатлари лойиҳаларини ишлаб чиқишда вазирликлар ва идораларни услубий қўллаб-қувватлаш, стратегик режалаштириш тизими бўйича тавсиялар ва услубий кўрсатмалар тайёрлаш.

3. Илғор халқаро тажриба ва давлат сиёсатининг устувор йўналишларини ҳисобга олган ҳолда стратегик режалаштириш ва ривожланиш тизимини такомиллаштириш бўйича таклифлар ишлаб чиқиш.

4. Вазирлик ва идоралар, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликларининг стратегик режалаштириш ва ривожланиш ҳужжатларини қонунчилик ҳужжатлари талаблари ва иерархияга мувофиқ ишлаб чиқиш, амалга ошириш ва ижросини мониторинг қилиш соҳасидаги фаолиятини мувофиқлаштириш.

5. Стратегик режалаштириш ҳужжатларини амалга ошириш бўйича тақдим этилган ҳисоботларни текшириш йўли билан хулосалар бериш ва уларнинг бажарилишини назорат қилиш.

6. Стратегик режалаштириш ҳужжатларининг мақсадларига эришилишини мониторинг қилиш.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ
ҚАРОРИ

664 Сунъий интеллект технологияларига асосланган лойиҳаларни қўллаб-қувватлашга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида*

Ижтимоий соҳа ва иқтисодиёт тармоқларида сунъий интеллект технологияларини кенг жорий этиш ҳамда давлат органлари ва ташкилотлари фаолиятида мазкур технологияларга асосланган ечимларни ишлаб чиқишни жадаллаштириш мақсадида **қарор қиламан:**

I. Мақсад

1. Белгилансинки, ушбу қарорни қабул қилишнинг асосий мақсади ижтимоий соҳа ва иқтисодиёт тармоқларида сунъий интеллект технологияларига асосланган устувор ва стартап лойиҳаларни молиялаштиришни кенгайтириш ҳисобланади.

II. Стартап лойиҳаларни молиялаштиришни кенгайтириш

2. Қуйидагилар:

(а) сунъий интеллект технологияларини ривожлантириш учун Тикланиш ва тараққиёт жамғармасидан Рақамли технологиялар вазирлигига:

(i) Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 14 октябрдаги ПҚ–358-сон қарорига асосан 2 йиллик имтиёзли давр билан 5 йил муддатга 50 миллион АҚШ доллари миқдорида фоизсиз кредит;

(ii) Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 22 октябрдаги ПФ–189-сон Фармонига асосан беғараз асосда 10 миллион АҚШ доллари ҳамда 3 йиллик имтиёзли давр билан 7 йил муддатга 90 миллион АҚШ доллари миқдорида фоизсиз кредит ажратилганлиги;

(б) Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йилдаги 14 октябрдаги ПҚ–357-сон қарорига асосан венчур жамғармаларни молиялаштирувчи «Фондлар фонди» ҳамда IT-парк ҳузурида рақамли технологиялар соҳасидаги стартап лойиҳаларни молиялаштирадиган «IT Park Ventures» венчур жамғармалари ташкил этилганлиги маълумот учун қабул қилинсин.

3. Ижтимоий соҳа ва иқтисодиёт тармоқларида сунъий интеллект технологияларига асосланган, шу жумладан, стартап лойиҳаларни молиялаштириш учун Тикланиш ва тараққиёт жамғармасидан 2026-2027 йилларда қўшимча 100 миллион АҚШ доллари миқдорида маблағ қуйидаги мақсадлар учун ажратилсин:

(а) 50 миллион АҚШ доллари миқдорида маблағ беғараз асосда давлат органлари ва ташкилотлари фаолиятига сунъий интеллект технологияларини жорий этиш учун. Бунда ижтимоий аҳамиятга эга лойиҳаларга устуворлик берилади;

* Ушбу қарор «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да 2025 йил 31 октябрда эълон қилинган.

(б) 50 миллион АҚШ доллари миқдорида маблағ тенг улушларда «Фондлар фонди» ва «IT Park Ventures» венчур жамғармалари устав капиталига Тикланиш ва тараққиёт жамғармасининг улуши сифатида киритилиши орқали сунъий интеллект технологияларига асосланган лойиҳаларни қўллаб-қувватлаш учун.

4. Белгилансинки:

(а) мазкур қарорнинг 3-бандида назарда тутилган маблағлар «Рақамли Ўзбекистон — 2030» стратегиясини амалга ошириш бўйича мувофиқлаштириш комиссияси (кейинги ўринларда — Мувофиқлаштириш комиссияси) томонидан тақсимланади. Бунда:

(i) тармоқ ва ҳудудлар кесимида маблағларни тақсимлаш йиллик сметаси, шу жумладан, лойиҳалар кесимида молиялаштириш ҳажми Мувофиқлаштириш комиссияси томонидан белгиланади;

(ii) 2025 йил 1 декабрга қадар давлат органлари ва ташкилотлари ўз фаолиятига сунъий интеллект технологияларини жорий этиш бўйича таклифларни Мувофиқлаштириш комиссиясининг ишчи органига тақдим этади;

(iii) 2026 йил 1 январга қадар ишчи орган таклифларни саралаб, Мувофиқлаштириш комиссиясига киритади;

(iv) «Фондлар фонди» ва «IT Park Ventures» венчур жамғармалари орқали молиялаштирилаётган лойиҳаларнинг устувор йўналишлари ва мезонлари Мувофиқлаштириш комиссияси томонидан белгиланади;

(б) лойиҳалар Мувофиқлаштириш комиссияси кўрсатмасига асосан қуйидагича молиялаштирилади:

(i) Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 22 октябрдаги ПФ–189-сон Фармонида асосан шакллантирилган реестрга киритилган тадбиркорлик субъектлари билан тузиладиган шартномаларга асосан;

(ii) ушбу реестрда мавжуд бўлмаган янги лойиҳалар бўйича Мувофиқлаштириш комиссияси томонидан белгиланган талаб ва мезонларга мувофиқ келувчи иштирокчилар орасида ўтказиладиган очиқ танлов натижаларига кўра;

(в) мазкур қарор доирасида ишлаб чиқиладиган ахборот тизими ва ресурслари техник ҳужжатларининг экспертизаси, истисно тариқасида, барча экспертиза органларида бир вақтнинг ўзида 15 кун муддатда амалга оширилади.

III. Қарор ижросини ташкил этиш, таъминлаш ва назорат

5. Қарор ижросини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазир А.Н. Арипов зиммасига юклансин.

Ўзбекистон Республикаси
Президенти

Ш. МИРЗИЁЕВ

Тошкент ш.,
2025 йил 30 октябрь,
ПҚ–320-сон

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ
ҚАРОРИ

665 Халқаро шартномани тасдиқлаш тўғрисида*

«Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномалари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунининг 22-моддасига мувофиқ **қарор қиламан:**

1. 2025 йил 29 май куни Самарқанд шаҳрида Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати билан Италия Республикаси Ҳукумати ўртасида имзоланган Инвестицияларни ўзаро рағбатлантириш ва ҳимоя қилиш тўғрисидаги битим тасдиқлансин.

2. Инвестициялар, саноат ва савдо вазирлиги мазкур халқаро шартномани амалга ошириш учун масъул ваколатли орган этиб белгилансин.

3. Ташқи ишлар вазирлиги Ўзбекистон Республикаси томонидан мазкур халқаро шартноманинг кучга кириши учун зарур бўлган давлат ички тартиб-таомиллари бажарилганлиги ҳамда уни амалга оширишга масъул бўлган ваколатли орган тўғрисида Италия Республикаси томонига тегишли билдиришнома юборсин.

4. Вазирлар Маҳкамаси ҳамда тегишли вазирлик ва идораларнинг раҳбарлари мазкур халқаро шартнома кучга киргандан кейин унинг қоидалари бажарилиши устидан белгиланган тартибда назоратни таъминласин.

5. Ушбу қарорнинг ижросини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазири А.Н. Арипов зиммасига юклансин.

Ўзбекистон Республикаси
Президенти

Ш. МИРЗИЁЕВ

Тошкент ш.,
2025 йил 31 октябрь,
ПҚ–326-сон

* Ушбу қарор «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да 2025 йил 3 ноябрда эълон қилинган.

УЧИНЧИ БЎЛИМ

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ВАЗИРЛАР МАҲКАМАСИНИНГ ҚАРОРИ

666 Акциядорлик жамияти шаклидаги «O'zbekiston qayta sug'urta kompaniyasi» миллий қайта суғурта ташкилотини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида*

Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Мамлакатимизда қайта суғурта тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2025 йил 23 майдаги ПҚ–191-сон қарори ижросини таъминлаш, қайта суғурта хизматлари экспортини ошириш ҳамда самарали қайта суғурта тизимини ташкил этиш мақсадида Вазирлар Маҳкамаси **қарор қилади:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Мамлакатимизда қайта суғурта тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2025 йил 23 майдаги ПҚ–191-сон қарорига мувофиқ:

Истиқболли лойиҳалар миллий агентлиги (кейинги ўринларда — Агентлик), Иқтисодиёт ва молия вазирлигининг «O'zbekiston qayta sug'urta kompaniyasi» миллий қайта суғурта ташкилотини (кейинги ўринларда — Компания) ташкил этиш ва унинг фаолиятининг асосий йўналишларини белгилаш тўғрисидаги таклифлари маъқуллангани;

Компания акциядорлик жамияти шаклида ташкил қилиниши ҳамда қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда қайта суғурта фаолиятини амалга ошириши;

Компаниянинг устав капитали 300 миллиард сўмдан кам бўлмаган миқдорда шакллантирилиши, унинг эллик фоизини давлат улуши ва эллик фоизини хусусий инвесторлар улуши ташкил этиши белгилангани маълумот учун қабул қилинсин.

2. Агентлик:

Адлия вазирлиги билан биргаликда Компанияни белгиланган тартибда давлат рўйхатидан ўтказиш ҳамда унинг тегишли бошқарув органларини шакллантириш ҳамда Компания фаолиятини ташкил этиш билан боғлиқ бўлган чора-тадбирлари амалга оширилишини таъминласин;

бир ой муддатда Компания устав капиталидаги давлат улушининг беш фоизи Компания ташкил этилганидан сўнг, қолган қисми чораклик тенг улушларда бир йил давомида киритилишини;

Компанияга қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда қайта суғурта фаолиятини амалга ошириш учун лицензия берилишини;

қайта суғурта қилиш соҳасида етакчи халқаро компанияларни Компания

* Ушбу қарор «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да 2025 йил 27 октябрда эълон қилинган.

устав капиталига хусусий инвестор сифатида жалб этиш бўйича амалий чоралар кўрилишини таъминласин.

3. Компанияга:

белгиланган тартибда хорижий банкларда жорий ҳисобварақларни очиш ва банк депозитлари бўйича тўловларни амалга ошириш учун улар бўйича операцияларни ўтказиш, суғурта тўловлари, суғурта ва инвестиция фаолияти билан боғлиқ бошқа операцияларни амалга оширишга;

ўзида қолдирилган улуш миқдоридан ортиқ мажбуриятларни қабул қилишни ўзининг ички ҳужжатларида белгиланган талабларга мувофиқ амалга оширишга;

харид қилиш тартиб-таомилларини электрон шаклда ўтказмасдан, ишлаб чиқарувчи ва етказиб берувчиларнинг энг яхши таклифларини танлаб олиш асосида Компания фаолияти учун зарур бўлган жиҳозлар, техникалар, алоқа ва ахборот коммуникация технологиялари воситаларини, шунингдек, ахборот тизимлари ва анжомларни харид қилишга рухсат берилсин.

4. Белгилансинки, 2031 йил 1 январга қадар Компания акцияларининг давлат улуши бўйича дивидендлари, истисно тариқасида, тўлиқ Агентликка ўтказилади.

5. Давлат активларини бошқариш агентлиги Агентлик билан биргаликда бир ой муддатда Компанияни жойлаштириш учун белгиланган тартибда бино ва иншоотлар ажратилишини таъминласин.

6. Ушбу қарорнинг бажарилишини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазирининг ўринбосари — иқтисодиёт ва молия вазири Ж.А. Қўчқоров зиммасига юклансин.

**Ўзбекистон Республикасининг
Бош вазири**

А. АРИПОВ

Тошкент ш.,
2025 йил 27 октябрь,
678-сон

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ВАЗИРЛАР МАҲКАМАСИНИНГ ҚАРОРИ

667 Қашқадарё вилоятида Кўкдала туман 2-сон техникуми фаолиятини ташкил этиш тўғрисида*

Қашқадарё вилоятида ёшларни касбий таълимга жалб этиш, уларга касб ва мутахассисликларни эгаллаши учун қулай шароитлар яратиш, ҳудуднинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиш тенденциясига мос ўрта бўғин кадрларини тайёрлаш тизимини кенгайтириш мақсадида Вазирлар Маҳкамаси **қарор қилади:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Касбий таълим тизимида бошқарув самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2025 йил 23 октябрдаги ПФ–190-сон Фармони билан Кўкдала (Чироқчи) педагогика коллежи негизда Кўкдала туман 2-сон техникуми (кейинги ўринларда — Техникум) ташкил этилгани маълумот учун қабул қилинсин.

Қуйидагилар:

Техникум Қашқадарё вилояти, Кўкдала тумани, Кўкдала МФЙ, Умар Хайём кўчаси 77-уй манзилида фаолият кўрсатиши;

собик Кўкдала (Чироқчи) педагогика коллежи ҳудудида жойлашган давлат мактабгача таълим ташкилоти биноси ҳамда унга туташ бўлган 0,5 га ер майдони Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги тизимида қолдирилиши инobatга олинсин.

2. Белгилаб қўйилсинки:

Техникум Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Касбий таълим агентлиги тизимидаги давлат касбий таълим ташкилоти ҳисобланади ва унинг фаолияти амалдаги касбий таълим ташкилотларини молиялаштириш тартиби асосида ҳамда қонунчилик ҳужжатларида тақиқланмаган бошқа манбалар ҳисобидан амалга оширилади;

Техникумга умумий ўрта таълим ташкилотининг 9 ва 11-синф битирувчилари белгиланган тартибда ўқишга қабул қилинади;

Техникумни сақлаш харажатларига 2025 йилда талаб этиладиган маблағлар Қашқадарё вилояти маҳаллий бюджетига ажратилган маблағлар доирасида амалга оширилади, 2026 йилдан бошлаб эса Давлат бюджети параметрларида назарда тутилади.

3. Техникумнинг асосий вазифалари этиб қуйидагилар белгилансин:

иқтисодиёт тармоқларида ўрта бўғин кадрларига талаб юқори бўлган касб ва мутахассисликлар бўйича ҳамда халқаро таълим дастурларини жорий қилиш орқали ташқи меҳнат бозори эҳтиёжи асосида кадрлар тайёрлаш;

таълим ва ишлаб чиқариш интеграциясини таъминлаш мақсадида дуал таълим шаклида кадрлар тайёрлашни кенгайтириш;

меҳнат бозорида талаб юқори бўлган касблар бўйича ишсиз ва банд бўлмаган аҳолини қисқа муддатли касбларга ҳамда хорижий тилларга ўқитиш,

* Ушбу қарор «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да 2025 йил 29 октябрда эълон қилинган.

бунда қисқа муддатли ўқув курсларини иш берувчилар талабига мувофик ташкил этиш;

тегишли касбий таълим даражалари бўйича кадрлар тайёрлаш учун зарур моддий-техника, ўқув-методик базани яратиш;

ўқув жараёнига юқори иш тажрибасига эга бўлган амалиётчи мутахассисларни ҳамда олий таълим ташкилотларининг профессор-ўқитувчиларини жалб этиб бориш;

нуфузли хорижий таълим ташкилотлари билан ҳамкорликда қўшма таълим дастури асосида мутахассислар тайёрлаш ҳамда ўқувчиларни эгаллаган касб ва мутахассислик бўйича халқаро тан олинган касбий сертификатларини олишларига шарт-шароитлар яратиш.

4. Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги:

а) бир ой муддатда Техникумда ўқув жараёнини ташкил этиш, таълим сифатини таъминлаш ва ўқувчилар учун зарурий шарт-шароитларни яратиш бўйича чора-тадбирлар дастурини ишлаб чиқсин;

б) Техникумни ўқув-лаборатория жиҳозлари, устахона асбоб-ускуналари ва ўқув техника билан таъминлашда сунъий интеллект ҳамда «яшил иқтисодиёт» тенденцияларини инобатга олсин;

в) 2025 йил 15 ноябрга қадар:

Техникумнинг уставини тасдиқласин ҳамда унинг белгиланган тартибда давлат рўйхатидан ўтказилишини таъминласин;

2025/2026 ўқув йили учун Иқтисодиёт ва молия вазирлиги билан келишилган ҳолда Қашқадарё вилояти ҳокимлигининг таклифи асосида Техникумга ўқувчиларни қабул қилиш параметрларини белгиланган тартибда тасдиқласин.

5. Қашқадарё вилояти ҳокимлиги:

Техникумда тайёрланаётган касб ва мутахассисликлар бўйича ҳудуддаги корхона ва ташкилотларни саноат ҳамкори сифатида жалб этсин ҳамда ўқувчиларнинг ишлаб чиқариш амалиётини ҳудуддаги тадбиркорлик субъектларида ўтказишни таъминласин;

2026/2027 ўқув йили бошлангунга қадар Техникумнинг моддий-техника базасини мустаҳкамлаш, инфратузилмасини яхшилаш чораларини кўрсин;

Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Миграция агентлиги билан биргаликда Техникумда 2026 йил 1 январдан бошлаб ўқишга қабул қилинган ўқувчиларни ҳамда хорижда ишлаш истагида бўлган фуқароларни немис, инглиз, рус, корейс ва япон тилларига Миграция жамғармаси маблағлари ҳисобидан ўқитишни йўлга қўйсин;

Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги билан биргаликда 2026/2027 ўқув йилидан бошлаб Техникумда халқаро таълим дастурини жорий қилиш чораларини кўрсин;

ҳар йили июль-август ойларида Техникум битирувчилари учун вилоятдаги иш берувчиларни жалб қилган ҳолда ярмаркалар, шу жумладан, ўқув йили давомида ишлаб чиқариш ташкилотларида тасдиқланган режа-графиклар асосида «Очиқ эшиклар куни»ни ташкил қилсин.

6. Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги манфаатдор вазирлик ва

идоралар билан биргаликда ўзлари қабул қилган норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни бир ой муддатда ушбу қарорга мувофиқлаштирсин.

7. Ушбу қарорнинг бажарилишини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси олий таълим, фан ва инновациялар вазири К.А. Шарипов ҳамда Қашқадарё вилояти ҳокими М.Б. Азимов зиммасига юклансин.

**Ўзбекистон Республикасининг
Бош вазири**

А. АРИПОВ

Тошкент ш.,
2025 йил 28 октябрь,
680-сон

БЕШИНЧИ БЎЛИМ**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING
BUYRUG'I**

668 “Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida*

*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil
28-oktabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 1812-2*

O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5812-son “Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoniga muvofiq **buyuraman:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazining 2008-yil 30-apreldagi 01-148Q/Q, 118 va 16/QQ-son “Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qaroriga (ro'yxat raqami 1812, 2008-yil 19-may) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008-y., 20-21-son, 189-modda) ilovaga muvofiq o'zgartirishlar kiritilsin.

2. Mazkur buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Vazir

K. SHARIPOV

Toshkent sh.,
2025-yil 18-oktabr,
405-son

* Ushbu buyruq «Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi»da 2025-yil 28-oktabrda e'lon qilingan.

O'zbekiston Respublikasi
oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining
2025-yil 18-oktabrdagi 405-son buyrug'iga
ILOVA

**“Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining
bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning
reyting tizimi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorga
kiritilayotgan o'zgartirishlar**

1. Qarorda:

a) qarorning nomi va 1-bandidagi “kasb-hunar kollejlari” degan so'zlar “professional ta'lim tashkilotlari” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

b) qarorning muqaddimasidagi “O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 13-maydagi “O'zbekiston Respublikasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 204-sonli qarorining 7-bandiga” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrdagi PF–5812-son “Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoniga” degan so'zlar bilan almashtirilsin.

2. Nizomda:

a) nizomning nomidagi “kasb-hunar kollejlari” degan so'zlar “professional ta'lim tashkilotlari” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

b) nizomning muqaddimasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mazkur Nizom akademik litseylar va professional ta'lim tashkilotlari o'quvchilarining bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimini tartibga soladi.

Ushbu Nizomning amal qilishi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi akademik litseylar o'quvchilarining bilim saviyasi, ko'nikma hamda malakalarini nazorat qilishning reyting tizimiga nisbatan tatbiq etilmaydi.”;

d) 1-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“1. Akademik litseylar va professional ta'lim tashkilotlari o'quvchilarining bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi Davlat ta'lim standartlarining tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi.”;

e) 2-banddagi “kasb-hunar kollejlarida” degan so'zlar “professional ta'lim tashkilotlarida” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

f) 3-bandning “a” kichik bandidagi “kasb-hunar kollejlari” degan so'zlar “professional ta'lim tashkilotlari” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

g) 4-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“4. O'quvchilarning bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat tartibotlarini o'tkazish nazarda tutiladi:

joriy nazorat — o'quvchining fan mavzulari bo'yicha o'zlashtirish darajasini muntazam ravishda baholash orqali amalga oshiriladi. Bunda ushbu nazorat og'zaki so'rovlar, seminarlar, diktant, bayon, insho va testlar shaklida o'tkaziladi;

oralik nazorat — semestr davomida fanning tegishli bo'limi tugaganidan keyin o'quvchining bilimi va amaliy ko'nikmalarini baholash orqali amalga oshiriladi. Bunda ushbu nazorat og'zaki, yozma ish (individual yoki jamoaviy ish, prezentatsiya, tahliliy ma'lumot tayyorlash, muammoli vaziyat (kazuslar) yoki test sinovlari shaklida o'tkaziladi;

yakuniy nazorat — semestr yakunida o'quvchining fan bo'yicha o'zlashtirgan bilim va amaliy ko'nikmalarini baholash orqali amalga oshiriladi.

Fan tugallanishida yakuniy nazorat yozma yoki test usulida o'tkaziladi. Boshqa hollarda yakuniy nazoratning o'tkazilish tartibi, shakli ta'lim tashkilotining ilmiy-pedagogik kengashi tomonidan belgilanadi.”.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI ELEKTR ENERGIYASI,
NEFT MAHSULOTLARI VA GAZDAN FOYDALANISHNI
NAZORAT QILISH INSPEKSIYASI BOSHIG‘INING
BUYRUG‘I

669 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Elektr energiyasi, neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi tomonidan qabul qilingan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risida*

*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil
28-oktabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 2871-2*

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 29-iyuldagi 472-son “Elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlashda yuzaga keladigan texnologik sarfning ruxsat etilgan me‘yorlarini hisoblash hamda tasdiqlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qaroriga muvofiq **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Elektr energiyasi, neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi tomonidan qabul qilingan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

2. Mazkur buyruq O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Texnik jihatdan tartibga solish agentligi bilan kelishilgan.

3. Mazkur buyruq rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Boshliq v.v.b

X. ESHQO‘ZIYEV

Toshkent sh.,
2025-yil 22-oktabr,
12-son

Kelishildi:

Energetika vaziri

J. MIRZAMAHMUDOV

2025-yil 24-sentabr

Iqtisodiyot va moliya vaziri

J. KUCHKAROV

2025-yil 22-oktabr

* Ushbu buyruq «Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi»da 2025-yil 28-oktabrda e‘lon qilingan.

*Texnik jihatdan tartibga solish
agentligi rahbari o'rinbosari*

O. TOHIROV

2025-yil 19-sentabr

O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Elektr
energiyasi, neft mahsulotlari va gazdan
foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi
boshlig'ining 2025-yil 22-oktabrdagi
12-son buyrug'iga
ILOVA

**O'z kuchini yo'qotgan deb topilayotgan idoraviy
normativ-huquqiy hujjatlar
RO'YXATI**

1. Elektr energetikada nazorat bo'yicha davlat inspeksiyasi boshlig'ining 2017-yil 6-martdagi 2-son "Elektr energiyasini elektr tarmoqlari bo'ylab uzatish va taqsimlashda texnologik yo'qotishlarning normativlarini hisoblash tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi buyrug'i (ro'yxat raqami 2871, 2017-yil 31-mart) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 13-son, 211-modda).

2. Elektr energetikada nazorat bo'yicha davlat inspeksiyasi boshlig'ining 2018-yil 10-iyuldagi 8-son "Elektr energiyasini elektr tarmoqlari bo'ylab uzatish va taqsimlashda texnologik yo'qotishlarning normativlarini hisoblash tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaning 17-bandiga o'zgartirish kiritish haqida"gi buyrug'i (ro'yxat raqami 2871-1, 2018-yil 14-iyul) (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 16.07.2018-y., 10/18/2871-1/1512-son).

3. O'zbekiston Respublikasi energetika vazirining 2024-yil 8-iyuldagi 90-son buyrug'iga ilovaning 2-bandini (ro'yxat raqami 3551, 2024-yil 14-avgust) (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.08.2024-y., 10/24/3551/0660-son).

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGINING
QARORI

**670 Umumta’lim muassasalarida sinflarni komplektlash hamda
tarifikatsiya ro’yxatlarini shakllantirish tartibi to’g’risidagi
nizomga o’zgartirishlar kiritish haqida***

*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil
28-oktabrda ro’yxatdan o’tkazildi, ro’yxat raqami 3271-1*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda PF–269-son “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi va 2023-yil 26-mayda PF–79-son “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrda 638-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to’g’risida”gi qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Sog’liqni saqlash vazirligi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Moliya vazirligi va Sog’liqni saqlash vazirligining 2020-yil 22-iyunda 8-mh, 28, 124/1-son qarori (ro’yxat raqami 3271, 2020-yil 30-iyun) (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 30.06.2020-y., 10/20/3271/1117-son) bilan tasdiqlangan Umumta’lim muassasalarida sinflarni komplektlash hamda tarifikatsiya ro’yxatlarini shakllantirish tartibi to’g’risidagi nizomga ilovaga muvofiq o’zgartirishlar kiritilsin.

2. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Mazkur qarorga ilovaning 5-bandi 2026-yilning 1-avgustidan e’tiboran kuchga kiradi.

**Maktabgacha va maktab
ta’limi vaziri**

E. KARIMOVA

Toshkent sh.,
2025-yil 3-oktabr,
12-mh-son

* Ushbu qaror «Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi»da 2025-yil 28-oktabrda e’lon qilingan.

Iqtisodiyot va moliya vaziri**J. KUCHKAROV**

Toshkent sh.,
2025-yil 29-sentabr,
291-son

Sog'liqni saqlash vaziri**A. XUDAYAROV**

Toshkent sh.,
2025-yil 26-sentabr,
11-son

O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining
2025-yil 3-oktabrdagi 12-mh-son, Iqtisodiyot
va moliya vazirligining 2025-yil 29-sentabrdagi
291-son, Sog'liqni saqlash vazirligining 2025-yil
26-sentabrdagi 11-son qaroriga
ILOVA

**Umumta'lim muassasalarida sinflarni komplektlash hamda
tarifikatsiya ro'yxatlarini shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizomga
kiritilayotgan o'zgartirishlar**

1. 3-bandda:

to'rtinchi xatboshidagi "tuman (shahar) xalq ta'limi va moliya bo'limlari" degan so'zlar "hududiy maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari hamda hududiy iqtisodiyot va moliya organlari" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

beshinch xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalari, Respublika o'g'il bolalar o'quv-tarbiya muassasalari, Respublika qiz bolalar o'quv-tarbiya muassasalari hamda ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim muassasalarida sinflar tegishliligi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 7-avgustdagi 173-son "Ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi, 2019-yil 17-oktabrdagi 880-son "Respublika o'quv-tarbiya muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlariga muvofiq komplektlanadi."

2. 9-bandning ikkinchi xatboshisidagi "hududiy xalq ta'limi bo'linmalari hamda hududiy moliya organlariga" degan so'zlar "hududiy maktabgacha va maktab ta'limi bo'linmalari hamda hududiy iqtisodiyot va moliya organlariga" degan so'zlar bilan almashtirilsin.

3. 10-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“10. Hududiy maktabgacha va maktab ta’limi bo’linmalari hamda hududiy iqtisodiyot va moliya organlari tomonidan ko’rib chiqilgan va tasdiqlangan sinflar komplektini shakllantirish to’g’risidagi ma’lumotlar asosida hududiy maktabgacha va maktab ta’limi bo’linmasining o’z hududidagi umumta’lim muassasalarida tashkil etiladigan sinflar komplektlari to’g’risidagi tegishli buyrug’i qabul qilinadi.”.

4. 14-bandning ikkinchi xatboshisidagi “Bunda ta’lim” va “hududiy xalq ta’limi” degan so’zlar tegishli ravishda “Bunda ta’lim o’zbek,” va “hududiy maktabgacha va maktab ta’limi” degan so’zlar bilan almashtirilsin.

5. 15-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“15. Umumta’lim muassasalari tomonidan shakllantirilgan dars soatlari setkasi umumta’lim muassasasining pedagogik kengashi tomonidan ikki ish kuni ichida ko’rib chiqilib, har yili 15-sentabrga qadar o’qituvchilarga dars soatlari quyidagi ko’rsatkichlarning ustuvor ketma-ketligi asosida taqsimlanadi:

oliy malaka toifasiga ega o’qituvchilar (pedagog kadrning attestatsiyadan o’tganligi to’g’risidagi sertifikatning amal qilish muddatiga ko’ra);

dars beradigan fanidan pedagog xodimlarga ustama belgilashda qo’llaniladigan milliy yoki xalqaro tan olingan sertifikatga ega o’qituvchilar (sertifikatning belgilangan darajasi va amal qilish muddatiga ko’ra);

birinchi malaka toifasiga ega o’qituvchilar (pedagog kadrning attestatsiyadan o’tganligi to’g’risidagi sertifikatning amal qilish muddatiga ko’ra);

ikkinchi malaka toifasiga ega o’qituvchilar (pedagog kadrning attestatsiyadan o’tganligi to’g’risidagi sertifikatning amal qilish muddatiga ko’ra);

oliy ma’lumotli toifasiz o’qituvchilar;

qayta tayyorlash bo’yicha diplomga ega o’qituvchilar (o’qituvchida qayta tayyorlash mutaxassisligi bo’yicha mazkur bandning ikkinchi — oltinchi xatboshilarida nazarda tutilgan ko’rsatkichlardan biri yoki bir nechitasi mavjud bo’lganda taalluqliligiga ko’ra tegishli ko’rsatkichlar mavjud bo’lgan o’qituvchilar bilan teng ustuvorlikka ega bo’ladi);

o’rindoshlik asosida ishlayotgan oliy ma’lumotli o’qituvchilar;

oliy ta’lim muassasalarining pedagogika yo’nalishi bo’yicha uchinchi va undan yuqori kurs talabalari;

oliy ma’lumotli o’qituvchilar bilan ta’minlanguniga qadar o’rta maxsus, professional ma’lumotga ega o’qituvchilar (faqat boshlang’ich sinflarda dars beruvchi o’qituvchilar uchun);

oliy ma’lumotli o’qituvchilar bilan ta’minlanguniga qadar umumta’lim muassasasining tegishli mutaxassisligi bo’yicha rahbar xodimlari.

Boshlang’ich sinflarda o’qitiladigan fanlar bo’yicha dars soatlarini taqsimlashda o’qituvchilarning boshlang’ich ta’lim mutaxassisligiga egaligi yoki tegishincha ushbu fanni boshlang’ich sinflarda o’qitish metodikasi bo’yicha ta’lim olganligi inobatga olinadi.

Umumta’lim muassasasining pedagogik kengashi tomonidan dars soatlari qayta taqsimlanishi mumkin.”.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI SANOAT,
RADIATSIYA VA YADRO XAVFSIZLIGI QO'MITASINING
QARORI

671 **Radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo'lishning xavfsizlik talablarini tasdiqlash to'g'risida***

*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil
28-oktabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3694*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-dekabrdagi PF-224-son "Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi sohasida davlat nazoratini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasi **qaror qiladi**:

1. Radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo'lishning xavfsizlik talablari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur qaror O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atom energiyasi agentligi va O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi bilan kelishilgan.

Mazkur qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Rais

A. RAFIQOV

Toshkent sh.,
2025-yil 10-oktabr,
25-son

Kelishildi:

Sog'liqni saqlash vaziri

A. XUDAYAROV

2025-yil 19-sentabr

Atom energiyasi agentligi direktori

A. AXMEDXADJAYEV

2025-yil 23-sentabr

Fanlar akademiyasi prezidenti

Sh. AYUPOV

2025-yil 24-sentabr

* Ushbu qaror «Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi»da 2025-yil 28-oktabrda e'lon qilingan.

O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat,
radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasining
2025-yil 10-oktabrdagi 25-son qaroriga
ILOVA

Radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo'lishning xavfsizlik TALABLARI

Mazkur hujjat atom elektr stansiyalari, kichik modulli yadro reaktorlar, tadqiqot yadro reaktorlar hamda boshqa yadroviy qurilmalardan foydalanish va ularni foydalanishdan chiqarish jarayonida hosil bo'ladigan radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo'lishda xavfsizlikni ta'minlashga oid talablarni belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu hujjatda quyidagi tushunchalar qo'llaniladi:

radioaktiv chiqindilar — foydalanish uchun mo'ljallanmagan, yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan eng ko'p miqdordan oshadigan faollik darajasiga ega radionuklidlarni o'z ichiga olgan har qanday agregat holatidagi materiallar va moddalar;

radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo'lish — radioaktiv chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish, jumladan radioaktiv chiqindilarni to'plash, saralash, qayta ishlash, konditsiyalash, transportda tashish (tashish), saqlash, zararsizlantirish, radioaktiv chiqindini chiqarib olish va ko'mib tashlash faoliyati;

radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo'lish obyektlari (bundan buyon matnda obyekt deb yuritiladi) — radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo'lish, jumladan ularni to'plash, saralash, qayta ishlash, konditsiyalash, transportda tashish (tashish), saqlash, zararsizlantirish, radioaktiv chiqindini chiqarib olish va ko'mish uchun mo'ljallangan, radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo'lish uchun zarur bo'lgan tizimlar va uskunalar bilan jihozlangan qurilmalar, komplekslar va inshootlar;

ekspluatatsiya qiluvchi tashkilotlar — O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tashkil etilgan hamda yadroviy qurilma va (yoki) saqlash punkti uchun mas'ul etib tayinlangan hamda o'z kuchlari bilan yoki boshqa yuridik shaxslarni jalb etgan holda yadroviy qurilmani va (yoki) saqlash punktini ekspluatatsiya qilishga qodir bo'lgan yuridik shaxs;

radioaktiv chiqindilarni tasniflash — radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo'lish maqsadida ularning faollik darajasi, radionuklidlarning turi va yarim yemirilish davri, issiqlik ajralishi va zarur izolyatsiyalash darajasi bo'yicha sinflarga ajratish jarayoni;

radioaktiv chiqindilarni konditsiyalash (bundan buyon matnda konditsiyalash deb yuritiladi) — radioaktiv chiqindilarni ko'mish uchun yaroqli bo'lgan va radioaktiv chiqindilarni ko'mish uchun maqbullik mezonlariga muvofiq bo'lgan fizik shakl va holatga keltirish bo'yicha texnologik jarayonlar;

radioaktiv chiqindilarni ko'mish uchun maqbullik mezonlari (bundan buyon matnda maqbullik mezonlari deb yuritiladi) — radioaktiv chiqindilarni xavfsiz ko'mish maqsadida ularning fizik-kimyoviy xossalari hamda sig'implariga qo'yiladigan talablar majmuasi.

2. Radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo'lishda quyidagi xavfsizlik talablariga rioya qilinishi lozim:

xodimlarning nurlanish dozalari ustidan doimiy individual nazoratni amalga oshirish;

radioaktiv chiqindilarni ularning faollik darajasiga ko'ra tasniflash;

radioaktiv chiqindilardan radiatsiya tarqalishining oldini olish maqsadida muhofaza va muhandislik to'siqlarini qo'llash;

xodimlarni shaxsiy himoya vositalari hamda dozimetrik nazorat vositalari bilan ta'minlash;

atrof-muhitning radiatsiyaviy ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik hamda sanitariya-himoya zonalarini tashkil etish;

radiatsiyaviy avariya yuz berishi mumkin bo'lgan holatlarga tayyorlikni ta'minlash va ularni bartaraf etish bo'yicha tezkor javob choralari belgilash;

radioaktiv chiqindilarni to'plash, saralash, qayta ishlash, konditsiyalash, transportda tashish (tashish), saqlash, zararsizlantirish, chiqarib olish va ko'mib tashlash jarayonlarining radiatsiyaviy xavfsizligini baholash ishlarini olib borish;

SanQvaM 0193-06 "Radiatsiya xavfsizligi normalari (RXN 2006) va Radiatsiya xavfsizligini ta'minlashning asosiy sanitar qoidalari (RXTASQ 2006)" talablariga;

SanQvaM 0251-08 "Radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo'lishning sanitariya qoidalari" talablariga;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-sentabrdagi 613-son qarori bilan tasdiqlangan Nurlanish olishning individual dozalarini nazorat qilish va hisobga olish yagona davlat tizimi to'g'risidagi nizomga muvofiq xodimlarning nurlanish olishning individual dozalarini nazorat qilish va hisobga olish;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 10-yanvardagi 13-son qarori bilan tasdiqlangan Atom energiyasidan foydalanish sohasida faoliyat olib boradigan ekspluatatsiya qiluvchi tashkilotlar va boshqa yuridik shaxslar xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish hamda ularni attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomga ko'ra, xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish hamda ularning attestatsiyadan o'tkazishni tashkil etish;

Xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomga (ro'yxat raqami 2387, 2012-yil 29-avgust) muvofiq xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tishini tashkil etish.

3. Obyektni loyihalash va qurish quyidagilar inobatga olingan holda amalga oshirilishi lozim:

radiatsiyaviy xavfsizlik talablari;

aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta'minlash choralari;

atrof-muhitni muhofaza qilish talablari;

aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish chora-tadbirlari;

arxitektura va shaharsozlik hujjatlari talablari;

obyektning kelgusida foydalanishdan chiqarilishi (yopilishi).

4. Radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo'lishda radiatsiyaviy nazorat shakli obyekt loyihasida belgilanishi va obyektning ekspluatatsiya hujjatlarida ko'rsatilishi lozim.

Obyektning ekspluatatsiya hujjatlarida quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

radiatsiyaviy nazoratni o'tkazish shakllari;

nazorat qilinadigan parametrlar va ularning yo'l qo'yiladigan qiymatlari;

radiatsiyaviy nazoratni o'tkazish tartibi va davriyligi;

radiatsiyaviy nazoratni amalga oshirish uchun texnik vositalar ro'yxati, ularning texnik tasniflari va tegishli uslubiy ta'minoti;

radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlashni amalga oshirish uchun lavozimlar ro'yxati, xodimlar soni va ularning malakasi.

5. Radioaktiv chiqindilar radioaktiv bo'lmagan chiqindilardan ajratilgan holda saqlanishi kerak.

6. Obyektni loyihalashda xavfsizlikka taalluqli konstruksiyalar, tizimlar va tarkibiy qismlar belgilanishi, shuningdek obyektning murakkabligi hamda undagi radioaktiv chiqindilarning xususiyatlari hisobga olinishi lozim.

7. Ekspluatatsiya qiluvchi tashkilotlar ekspluatatsiya hujjatlarini, jumladan radioaktiv chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish bo'yicha yo'riqnomalar va qo'llanmalarni ishlab chiqishni ta'minlashi lozim.

8. Ekspluatatsiya qiluvchi tashkilotlar radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo'lish jarayonida yuzaga keladigan avariyaaviy holatlarda harakatlarni SanQvaM 0251-08 "Radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo'lishning sanitariya qoidalari"ga asosan amalga oshirishi lozim.

9. Ekspluatatsiya qiluvchi tashkilotlar tomonidan radioaktiv chiqindilarni ko'mishdan oldin, radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo'lishning barcha bosqichlarida ularning fizik, kimyoviy, radiologik va biologik xossalari tasniflanishi lozim.

10. Ekspluatatsiya qiluvchi tashkilotlar har yili o'z faoliyati natijasida hosil bo'ladigan materiallar, moddalar, uskunalar va buyumlardagi radionuklidlar miqdorini baholashi, ushbu obyektlardan kelgusida foydalanish imkoniyatini aniqlashi va foydalanish mumkin bo'lmagan taqdirda ularni radioaktiv chiqindilar tarkibiga kiritishi lozim.

11. Radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo'lishda xavfsizlik darajasini oshirishga qaratilgan texnik yechimlar hamda tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligini aniqlash maqsadida, ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot tomonidan radioaktiv chiqindilar bilan muomaladagi xavfsizlikning joriy darajasi tahlil qilinishi lozim.

12. Foydalanilayotgan radioaktiv chiqindilarni vaqtincha va uzoq muddat saqlash punktlari, radioaktiv chiqindilarni joylashtirish va konservatsiyalash punktlari, shuningdek qattiq radioaktiv chiqindilarni ko'mishning yopiladigan punktlari hamda suyuq radioaktiv chiqindilarni chuqur ko'mish punktlari

bo'yicha radioaktiv chiqindilarni joylashtirish (ko'mish) tizimining uzoq muddatli xavfsizligini tahlil qilish va baholash ishlari amalga oshirilishi lozim.

Ushbu tahlil va baholash natijalari xavfsizlikni asoslash bo'yicha hisobotda aks ettirilishi hamda ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan dasturga muvofiq, xavfsizlik talablarini ta'minlashga qaratilgan tadbirlar bajarilishi zarur.

13. Ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot radioaktiv chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirishda xavfsizlikni davriy baholashni amalga oshirishi kerak.

Xavfsizlikni davriy baholash ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan dasturga muvofiq o'tkazilishi lozim.

2-bob. Radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo'lish

14. Ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot o'z faoliyatini amalga oshirish natijasida, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash chog'ida, shuningdek obyektдан normal foydalanish izdan chiqqanda, jumladan avariya paytida hosil bo'ladigan va (yoki) to'planib qoladigan barcha chiqarib tashlanadigan radioaktiv chiqindilar bilan muomalani ta'minlashi lozim.

Radioaktiv chiqindilar bilan bog'liq ishlar obyekt hayot davrining (sikl) barcha bosqichlarida, shuningdek uni foydalanishdan chiqarish (yopish) chog'ida ham xavfsiz tarzda amalga oshirilishi kerak.

15. Obyektning loyihasida radioaktiv chiqindilar hosil bo'ladigan manbalar va ularning tasniflari to'g'risidagi quyidagi ma'lumotlar bo'lishi lozim:

gazsimon, qattiq va suyuq radioaktiv chiqindilarning hosil bo'lish manbalari, ularning faolligi, tarkibi hamda yillik rejalashtirilgan miqdori (hajmi);

obyektning loyihaviy (belgilangan) foydalanish muddati davomida hosil bo'ladigan radioaktiv chiqindilar miqdori (hajmi) va faolligining baholanishi;

qayta ishlash, konditsiyalash va saqlash uchun to'plangan radioaktiv chiqindilarning miqdori (hajmi), faolligi va tarkibining baholanishi;

obyektni foydalanishdan chiqarishda (yopishda) hosil bo'ladigan radioaktiv chiqindilarning miqdori (hajmi), faolligi va tarkibining baholanishi.

16. Atom energiyasidan foydalanish jarayonida radioaktiv chiqindilar hosil bo'lishining normalari, shu jumladan radioaktiv chiqindilar hosil bo'lishining yillik rejalashtirilgan miqdorlari (hajmlari) hisobotda ko'rsatilishi lozim.

17. Ekspluatatsiya qiluvchi tashkilotlar suyuq va qattiq radioaktiv chiqindilarni o'z vaqtida to'plash, saralash hamda ular bilan keyinchalik muomala qilish uchun yaroqli holatga keltirishni ta'minlashi, shuningdek ko'mish uchun maqbullik mezonlariga muvofiqlashtirish, gazsimon radioaktiv chiqindilarni saqlash va (yoki) tozalash ishlarini tashkil etishi zarur.

18. Radioaktiv chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish bo'yicha texnik yechimlar va tashkiliy tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda quyidagilar hisobga olinishi lozim:

saralanishi, qayta ishlanishi, konditsiyalanishi va saqlanishi lozim bo'lgan radioaktiv chiqindilarning tasnifi, faolligi va hajmi;

radioaktiv chiqindilar bilan keyinchalik muomala qilish usullari (qayta ishlash,

konditsiyalash, tashish (tashish), saqlash, ko'mish), shuningdek radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo'lishning mavjud texnologiyalari;

radioaktiv chiqindilarning keyinchalik ular bilan muomalada bo'lish uchun belgilangan tasniflari va xossalarga qo'yiladigan talablar;

radioaktiv chiqindilarni saqlash shartlari, oraliq saqlashning yo'l qo'yiladigan hajmi va belgilangan muddatlari.

19. Radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo'lishning asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat:

radioaktiv chiqindilarni yig'ish va saralashni radioaktiv chiqindilarni tasniflash tizimiga muvofiq radiatsiyaviy, fizik va kimyoviy tasniflarini hisobga olgan holda ular hosil bo'lgan va (yoki) ishlov berish joylarda amalga oshirish;

suyuq va qattiq radioaktiv chiqindilarni saralash jarayonida ularni uzoq muddatli saqlashga va (yoki) ko'mishga tayyorlash maqsadida turli sinflarga ajratish;

radioaktiv chiqindilarning hajmini kamaytirish maqsadida konditsiyalash;

radioaktiv chiqindilarning xavfsiz izolyatsiyasini va keyinchalik foydali komponentlarni ajratib olish imkoniyatini ta'minlaydigan inshootlarda turli sinflardagi radioaktiv chiqindilarni saqlash;

tashishda maxsus yuk ko'tarish va transport vositalaridan foydalangan holda radioaktiv chiqindilarning hosil bo'lish, qayta ishlash, vaqtincha saqlash va uzoq muddat saqlash joylari o'rtasida xavfsiz harakatlanishni ta'minlash;

odamlar va atrof-muhitdan xavfsiz ajratishga qaratilgan saqlash yoki ko'mib tashlashni tashkil etish.

20. Suyuq radioaktiv chiqindilarni yer usti va yer osti suv havzalariga, suv to'plash maydonlariga, yer qa'riga va yer ustiga, shuningdek yer usti oqova suvlarini tozalash inshootlariga hamda oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimiga oqizishga yo'l qo'yilmaydi.

21. Gazsimon radioaktiv chiqindilar tarkibidagi radioaktiv moddalarni atmosfera havosiga chiqarishning yo'l qo'yiladigan normalari SanQvaM 0251-08 "Radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo'lishning sanitariya qoidalari"ga muvofiq belgilanishi lozim.

22. Texnologik puflamalar yig'ma shamollatish qutilariga va keyinchalik shamollatish quvuriga faqat ularning tozalangandan va (yoki) ruxsat etilgan darajagacha ushlab turilgandan so'ng yuborilishiga yo'l qo'yiladi.

Texnologik puflamalarni chiqarib tashlash uchun umumiy almashinuv (so'ruvchi) shamollatish (ventilyatsiya) tizimidan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

23. Obyektning loyiha va ekspluatatsiya hujjatlarida atmosfera havosiga radioaktiv moddalarni chiqarish va suv obyektlariga radioaktiv moddalarni oqizishda SanQvaM 0193-06 Radiatsiya xavfsizligi normalari (RXN 2006) va Radiatsiya xavfsizligini ta'minlashning asosiy sanitar qoidalari (RXTASQ 2006) ga muvofiq xavfsiz foydalanish chegaralari belgilanishi lozim.

24. Radioaktiv moddalar chiqarib tashlanishini (oqizilishini) nazorat qilish uchun sutkalik va oylik chiqarib tashlashlarning (oqizilishlarning) nazorat darajalari belgilanishi lozim.

Tashlamalarning nazorat darajalari qiymatlari obyekt loyihasida

belgilangan yo'l qo'yiladigan chiqarishlar va tashlamalar qiymatlaridan past bo'lishi, shuningdek kamida besh yilda bir marotaba davriy qayta ko'rib chiqilishi zarur.

25. Radioaktiv moddalarni chiqarishning (tashlash) har bir manbai uchun quyidagi ma'lumotlar bo'lishi lozim:

radioaktiv moddalarni chiqarish (tashlash)ning nazorat qilinadigan parametrlari;

muhit turi (havo (gaz) yoki suyuqlik) sarfi;

chiqarilayotgan moddaning sifat va miqdoriy radionuklid tarkibi;

sutka, oy va yil uchun o'rtacha olingan chiqarish (tashlash)dagi radionuklidlarning jami faollik miqdorlari.

26. Chiqarib tashlanadigan radioaktiv chiqindilarni saqlash quyidagi joylarda amalga oshirilishi kerak:

radioaktiv chiqindilarni saqlash punktlarida;

radioaktiv chiqindilar saqlanadigan omborxonalarda;

obyektning loyihasida belgilangan maxsus joyda.

27. Radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo'lishning barcha bosqichlarida radioaktiv chiqindi konteynerlari yoki sig'implari to'g'ri identifikatsiya qilinishi va tamg'alanishi, bunda identifikatsiya quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

identifikatsiya raqami;

radionuklidlar nomi va kimyoviy belgisi;

faollik (agar o'lchangan yoki baholangan bo'lsa) va o'lchash sanasi;

kelib chiqishi (bino, laboratoriya);

potensial yoki haqiqiy xavf (kimyoviy, nurlanish);

sirtidagi doza quvvati va o'lchash sanasi;

miqdori (og'irligi yoki hajmi).

28. Ekspluatatsiya qiluvchi tashkilotlar tomonidan radioaktiv chiqindilarni yig'ish ularning hosil bo'ladigan joylarida quyidagilarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak:

radioaktiv chiqindilar toifalari;

agregat holatdagi (qattiq, suyuq);

fizik va kimyoviy tasniflari;

organik va noorganik tasnifi;

radioaktiv chiqindilar tarkibidagi radionuklidlarning yarim yemirilish davri (soatlar, kunlar, oylar, yillar, o'n yilliklar va undan katta davrni tashkil etuvchi yarim yemirilish davri);

portlash va yong'in xavfsizligi.

29. Suyuq radioaktiv chiqindilarni saralashda ularning fizik xususiyatlari (bir jinsli yoki bir jinsli bo'lmagan radioaktiv chiqindilar), kimyoviy xususiyatlari (organik, noorganik, gidrofil, gidrofob, gidratlangan) va kimyoviy tarkibi hisobga olinishi lozim.

30. Suyuq radioaktiv chiqindilar kimyoviy va radiologik tasniflarga, radioaktiv chiqindilar hajmiga, saqlash ehtiyojlariga muvofiq mos sig'implarda to'planishi kerak.

Har bir germetik sig'im nasoslar va suyuqlikni kiritish yoki chiqarish teshiklari,

shuningdek suyuqlik sathini nazorat qilish moslamalari bilan jihozlangan bo'lishi lozim.

31. O'rtacha faollikdagi suyuq radioaktiv chiqindilarni to'plash qurilmalari quyidagicha jihozlanishi kerak:

suyuqliklarni qabul qilish va to'kish uchun nasoslar va qurilmalar bilan;
gamma-doza quvvatini, haroratni, bosimni va sig'implardagi suyuqlik sathini nazorat qilish uchun qurilmalar bilan;

namunalar olish uchun uskunalar bilan;
qoldiq va cho'kindilarni yo'qotish uchun qurilmalar bilan;
sig'imning suyuq tarkibini yig'ish uchun germetik hovuz bilan;
vodorodni chiqarib yuborish xavfi mavjud bo'lsa, uni nazorat qilish va chiqarib yuborish uskunalari bilan.

32. Qattiq radioaktiv chiqindilar ularning fizik va radiologik tasniflari va hajmi, saqlanishi va boshqa ehtiyojlariga muvofiq tegishli konteynerlarda to'planishi kerak.

Nam qattiq radioaktiv chiqindilar ifloslangan suyuqliklar konteynerlardan sizib chiqmasligi lozim.

33. Radioaktiv chiqindilarni to'plash va saralash joylarida bo'sh va qisman to'ldirilgan konteynerlar uchun alohida joy ajratilishi hamda to'plangan radioaktiv chiqindilar sinfiga muvofiq konteynerlar belgilanishi lozim.

34. Eksploatatsiya qiluvchi tashkilotlar hududida qattiq radioaktiv chiqindilar solingan konteynerlarni ko'chirish uchun qurilmalar bo'lishi lozim.

35. Qattiq radioaktiv chiqindilar bilan to'ldirilgan barcha konteynerlarda quyidagi xavfsizlik choralariga rioya qilinishi lozim:

doza quvvatini o'lchash (konteyner yuzasidan tarqalayotgan radiatsiya darajasini aniqlash uchun maxsus o'lchov asboblari bilan tekshiruv o'tkazilishi);
sirt ifloslanishini o'lchash (konteynerning tashqi yuzasida radioaktiv moddalar mavjudligini aniqlash maqsadida nazorat amalga oshirilishi);

konteyner to'liq to'ldirilganda undagi radionuklidlar tarkibi (qanday radioaktiv elementlar mavjudligi) to'g'ridan-to'g'ri fizik o'lchovlar yoki zarur hollarda hisoblash va baholash uslublari orqali aniqlash.

36. O'lchashlarni boshlashdan oldin radioaktiv chiqindilarning har bir sinfi uchun signalizatsiya darajalari o'rnatilishi kerak.

Agar radioaktiv chiqindilar konteyneri indikator yonidan o'tayotganda signalizatsiya ishga tushsa, unda mavjud bo'lgan radioaktiv chiqindilar yuqori darajadagi radioaktiv chiqindilar sifatida baholanishi lozim.

37. Konteynerlarni qayta ishlatishdan oldin ularning radioaktiv ifloslanganligi tekshirilishi, aniqlangan ifloslanishlar bartaraf etilishi va tashqi sirtning ruxsat etilgan ifloslanish darajasi SanQvaM 0251-08 "Radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo'lishning sanitariya qoidalari"ga muvofiq aniqlanishi lozim.

38. Tashlanayotgan suyuqlik tarkibida biron-bir radioaktiv zarracha bo'lsa, u filtrlanishi va juda nordon yoki ishqorli suyuqliklarni tashlashdan oldin zararsizlantirilishi lozim.

Suyuqliklar tarkibida oqova suvlarni qayta ishlashga va (yoki) atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan zaharli yoki boshqa kimyoviy moddalar

ham mavjud bo'lsa, suyuq radioaktiv chiqindilar SanQvaM 0251-08 "Radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo'lishning sanitariya qoidalari"ga muvofiq oqizishdan oldin qo'shimcha ravishda qayta ishlanishi kerak.

39. Suyuq radioaktiv chiqindilarni qayta ishlashda ularning taxminiy hajmi, radionuklid va kimyoviy tarkibi, zahariligi, harorati, radioaktiv chiqindilardan gazlar ajralib chiqishini hisobga olish lozim.

40. Radioaktiv chiqindilarga ishlov berilgandan so'ng ularga tegishli bog'lovchi moddalar qo'shib qotirilishi kerak.

Qotgan radioaktiv chiqindilar sig'implarga joylashtirilishi lozim.

41. Radioaktiv chiqindilarga ishlov berish jarayonida uchuvchan radionuklidlarning mumkin bo'lgan tarqalishi, suyuqlik hosil bo'lishi, ishlov berish jarayonida va undan keyin yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kimyoviy faollik, shuningdek siqilgan radioaktiv chiqindilarning tarkibiy qismlari tomonidan yuzaga keladigan yong'in va portlash xavfi inobatga olinishi zarur.

42. Radioaktiv chiqindilarni qayta ishlash va konditsiyalash SanQvaM 0251-08 "Radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo'lishning sanitariya qoidalari"ga muvofiq bo'lishi lozim.

43. Konditsiyalashda radioaktiv chiqindilar sig'imi yopiq bo'lishi lozim.

44. Tarkibida ko'p miqdorda organik moddalar bo'lgan radioaktiv chiqindilarni saqlash muddati, agar sovitish qurilmalarida yoki tegishli eritmalarda saqlash sharoitlari ta'minlanmagan bo'lsa, besh sutkadan oshmasligi lozim.

45. Ekspluatatsiya qiluvchi tashkilotlar radioaktiv chiqindilar saqlanadigan har bir sig'imni muntazam tekshirishi, ularning mustahkamligi va germetikligini ta'minlash choralarini ko'rishi, shuningdek saqlash joylarini kuzatish va ularga texnik xizmat ko'rsatish imkoniyatini ta'minlashi lozim.

46. Saqlash joyi loyihasida chiqarib olinadigan radioaktiv chiqindilar sig'imlarini saqlash, ko'zdan kechirish, ularga texnik xizmat ko'rsatish, tuzatish va boshqa harakatlar uchun zaxira saqlash zonasi ko'zda tutilishi kerak.

47. Saqlash joyida normal foydalanish yoki favqulodda vaziyatlarda gaz hosil bo'lishining oldini olish uchun shamollatish (ventilyatsiya) ta'minlanishi lozim.

48. Radioaktiv chiqindilar sig'imlarining tasniflari maqbullik mezonlariga muvofiq bo'lmasa, radioaktiv chiqindilar sig'implari maqbulligi mezonlariga muvofiqligi yuzasidan tekshirilish lozim.

49. Ekspluatatsiya qiluvchi tashkilotlar radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo'lishning barcha bosqichlarini qamrab oluvchi sifatni ta'minlash dasturining tizimini ishlab chiqishi, bunda ushbu dastur quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:

xavfsiz foydalanish uchun zarur bo'lgan texnik shartlar va talablar obyektning butun hayotiy davri (sikl) davomida, loyihalashtirishdan boshlab uni foydalanishdan chiqarishgacha rioya qilinishi;

saqlash va ko'mish talablariga muvofiqligi;

saqlash joyida saqlanayotgan radioaktiv chiqindilar joylangan sig'implarning butun saqlash muddati davomida sifati, butligi va germetikligi;

radioaktiv chiqindilar joylangan sig'implar pasportlarida, ularning yozuvlari uzoq muddat davomida saqlanishi imkoniyati mavjudligi.

50. Eksploatatsiya qiluvchi tashkilotlar radioaktiv chiqindilarni ko'mishdan oldin quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

xavfsizlik va atrof muhitga ta'sirni baholash;

radioaktiv chiqindilarni to'g'ri yig'ish, saralash, tasniflash va yo'q qilishning mavjud usullarini hisobga olgan holda radioaktiv chiqindilarning har bir oqimi bo'yicha xatlovdan o'tkazish;

xavfsizligining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda radioaktiv chiqindilarni yig'ish, qayta ishlash va saqlash inshootlari va uskunalarining xavfsiz va ishonchli ishlashi;

radioaktiv chiqindilarni saqlash muddati tugagandan so'ng yoki har qanday nosozliklarning oldini olish maqsadida olib ketish imkoniyati;

radioaktiv chiqindilarni xavfsiz saqlash va yo'q qilishga muvofiq bo'lgan usulda tozalash va konditsiyalash.

51. Transport vositalari va transport konteynerlari radiatsiyaviy nazoratdan o'tkazilishi lozim.

52. Obyekt maydonidan tashqarida radioaktiv chiqindilarni tashish SanQvaM 0251-08 "Radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo'lishning sanitariya qoidalari"ga muvofiq bo'lishi lozim.

3-bob. Yakuniy qoida

53. Mazkur hujjatning buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI SANOAT,
RADIATSIYA VA YADRO XAVFSIZLIGI QO'MITASINING
QARORI

**672 Radiatsiyaviy manbalar xavfsizligini ta'minlash qoidalarini
tasdiqlash to'g'risida***

*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil
28-oktabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3695*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-dekabrdagi PF-224-son "Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi sohasida davlat nazoratini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasi **qaror qiladi:**

1. Radiatsiyaviy manbalar xavfsizligini ta'minlash qoidalari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur qaror O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atom energiyasi agentligi hamda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi bilan kelishilgan.

3. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Rais

A. RAFIQOV

Toshkent sh.,
2025-yil 13-oktabr,
24-son

Kelishildi:

Sog'liqni saqlash vaziri

A. XUDAYAROV

2025-yil 10-sentabr

Atom energiyasi agentligi direktori

A. AXMEDXADJAYEV

2025-yil 18-sentabr

Fanlar akademiyasi prezidenti

Sh. AYUPOV

2025-yil 9-sentabr

* Ushbu qaror «Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi»da 2025-yil 29-oktabrda e'lon qilingan.

O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat,
radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasining
2025-yil 13-oktabrdagi 24-son qaroriga
ILOVA

Radiatsiyaviy manbalar xavfsizligini ta'minlash QOIDALARI

Ushbu Qoidalar O'zbekiston Respublikasi hududida yadroviy qurilmalar jumlasiga kirmaydigan, yangi quriladigan va rekonstruksiya qilinadigan radiatsiyaviy manbalar (bundan buyon matnda radiatsiyaviy manbalar deb yuritiladi) xavfsizligini ta'minlash tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Qoidalarda quyidagi tushunchalar qo'llaniladi:

radiatsiyaviy manbalar — tarkibida radioaktiv moddalar mavjud bo'lgan yoki ionlashtiruvchi nurlanish chiqaradigan, yadroviy qurilmalar jumlasiga kirmaydigan majmualar, qurilmalar, apparatlar, uskunalar va buyumlar;

radioaktiv moddalar — ionlashtiruvchi nurlanishni tarqatadigan, yadroviy materiallar jumlasiga kirmaydigan moddalar;

ochiq radionuklid manbai — qo'llanilishi davrida o'zidan chiqayotgan radionuklidlarni atrof-muhitga tarqatuvchi ionlashtiruvchi nurlanish manbai;

yopiq radionuklid manbai — qo'llanilishi va eskirishi davrida, o'zidan chiqayotgan radionuklidlarning atrof-muhitga tarqalishini istisno qiluvchi qurilma, ionlashtiruvchi nurlanish manbai;

ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot — O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tashkil etilgan hamda yadroviy qurilma va (yoki) saqlash punkti uchun mas'ul etib tayinlangan hamda o'z kuchlari bilan yoki boshqa yuridik shaxslarni jalb etgan holda yadroviy qurilmani va (yoki) saqlash punktini ekspluatatsiya qilishga qodir bo'lgan yuridik shaxs.

2. Ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot tomonidan radiatsiyaviy manbalar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha quyidagi talablar bajarilishi shart:

xodimlar uchun yillik nurlanish dozasining eng yuqori yo'l qo'yiladigan miqdori SanQvaM 0193-06-son "Radiatsiya xavfsizligi normalari (RXN 2006) va Radiatsiya xavfsizligini ta'minlashning asosiy sanitar qoidalari (RXTASQ 2006)"ga muvofiq 20 millizivertdan, aholi uchun esa 1 millizivertdan oshmasligi ta'minlanishi;

radiatsiyaviy manbalar loyiha hujjatlari va texnologik hujjatlarga muvofiq tarzda ishlatilishi va ularning texnik soz holatda saqlanishi ta'minlanishi;

favqulodda vaziyatlar va avariya holatlarida aholining xavfsizligini ta'minlash choralarining ko'rilishi.

3. Avariya holatlarida radioaktiv moddalar va ionlashtiruvchi nurlanishning tarqalishini cheklash quyidagi vositalar yordamida ta'minlanishi shart:

radiatsiyaviy manbalarni jisman himoya qilish to'siqlari;

автоматик xavfsizlik tizimlari;
avariyaga qarshi choralar rejasi.

2-bob. Radiatsiyaviy manbalar xavfsizligini ta'minlash

4. Radiatsiyaviy manbalar ularning xavfsizligi ionlashtiruvchi nurlanish va radionuklidlarning tarqalishini oldini olish uchun fizik to'siqlar hamda xodimlar, aholi va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha tashkiliy va texnik chora-tadbirlardan tashkil topgan ko'p bosqichli himoya dasturi (bundan buyon matnda ko'p bosqichli himoya dasturi deb yuritiladi) bilan ta'minlanishi kerak.

5. Radiatsiyaviy manbalarni joylashtirish va foydalanishdan chetlanishlarning oldini olishga qo'yiladigan talablar quyidagilarni o'z ichiga olishi shart:

1 va 2-toifalarga kiruvchi radiatsiyaviy manbalar uchun mos joy tanlanishi;
radiatsiyaviy manbalar loyihasida xavfsizlik shartlari hisobga olinishi;
radiatsiyaviy manbalarning avtomatik xavfsizlik tizimlari o'z-o'zini himoya qilish xususiyatlari bilan ta'minlanishi;
radiatsiyaviy manbalar uskunalarining texnik diagnostikasi texnologik hujjatlarda ko'rsatilgan muddatlarda o'tkazilishi va aniqlangan nuqsonlar bartaraf etilishi.

6. Radiatsiyaviy manbalardan foydalanishda loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan talablardan chetlanishlarni bartaraf etish quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan talablardan chetlanishlar aniqlanishi va ularning sabablari bartaraf etilishi;

loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan talablardan chetlanishlar texnik tizimlar orqali nazorat qilinishi va avtomatik xavfsizlik tizimlari ishga tushirilishi.

7. Radiatsiyaviy manbalarning loyihasida ko'zda tutilmagan avariyalarni oldini olish talablari quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

radiatsiyaviy manbalarning loyiha hujjatlarida ko'rsatilmagan avariyalarni oldi olinishi va radiatsiyaviy manbalar joylashgan xona yaxlitligi saqlanishi;

radiatsiyaviy manbalardan chiquvchi radioaktiv moddalar chiqishi 24 soat ichida avtomatik xavfsizlik tizimlari orqali bartaraf etilishi.

8. Ko'p bosqichli himoya dasturining bajarishi shart bo'lgan tashkiliy chora-tadbirlar va texnik yechimlar radiatsiyaviy manbalarning xavf darajasi asosida loyihada belgilanishi shart.

9. Radiatsiyaviy manbalarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan radiatsiyaviy avariya oqibatlarini yumshatish bo'yicha tashkiliy va texnik tadbirlar SanQvaM 0193-06-son "Radiatsiya xavfsizligi normalari (RXN 2006) va Radiatsiya xavfsizligini ta'minlashning asosiy sanitar qoidalari (RXTASQ 2006)"ga muvofiq amalga oshirilishi shart.

10. Radiatsiyaviy manbalar loyihasida avtomatik xavfsizlik tizimlarining ishonchliligi, hosil bo'lishi mumkin bo'lgan avariya va ularning oqibatlari loyiha hujjatlariga asosan tahlil qilinishi, aniqlangan nosozliklar bartaraf etilishi kerak.

11. Radiatsiyaviy manbalarda yuzaga kelgan avariya va ularning oqibatlarining tahlil natijalari xodimlar va aholini himoya qilish choralar rejasini (evakuatsiya, hudud cheklovi) ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qilishi shart.

12. Radiatsiyaviy manbalarni ishga tushirish, foydalanishdan chiqarish va ulardan foydalanish SanQvaM 0193-06-son “Radiatsiya xavfsizligi normalari (RXN 2006) va Radiatsiya xavfsizligini ta’minlashning asosiy sanitar qoidalari (RXTASQ 2006)”ga muvofiq bo’lishi shart.

3-bob. Radiatsiyaviy manbalar, ularning tizimlari va elementlarining tasnifi

13. Radiatsiyaviy manbalar ularda xavfsizlikni ta’minlash uchun zarur bo’lgan barcha tashkiliy va texnik chora-tadbirlar bajarilishini ta’minlash maqsadida quyidagi belgilar asosida tasniflanadi:

radiatsiyaviy manbalarining vazifasi;

radiatsiyaviy manbalarining radiatsiyaviy xavfi;

radiatsiyaviy manbalarining statsionar (ko’chmas), ko’chma va ko’tarma ekanligi;

radiatsiyaviy manbalar tarkibiga kiritilgan radionuklid manbai turi.

14. Radiatsiyaviy manbalar o’z vazifasiga ko’ra komplekslar, qurilmalar, uskunalar va buyumlardan iborat bo’ladi.

15. Radiatsiyaviy manbalar xavf darajasiga qarab quyidagi to’rt toifaga ajratiladi:

1 toifa — avariya holatida aholiga radiatsiyaviy ta’sir ko’rsatishi mumkin bo’lgan radiatsiyaviy manbalar;

2 toifa — avariya holatida radiatsiyaviy ta’sir radiatsiyaviy manbalarining sanitar-himoya zonasi hududi bilan cheklanadigan radiatsiyaviy manbalar;

3 toifa — avariya holatida radiatsiyaviy ta’sir radiatsiyaviy manbalar joylashtirilgan maydon yoki bino hududi bilan cheklanadigan radiatsiyaviy manbalar;

4 toifa — avariya holatida radiatsiyaviy ta’sir radiatsiyaviy manbalar joylashgan xona bilan cheklanadigan radiatsiyaviy manbalar.

16. Radiatsiyaviy manbalarining radiatsiyaviy xavf toifasi ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot tomonidan radiatsiyaviy manbalar loyihasida belgilanishi kerak.

17. Radiatsiyaviy manbalarni tashish bo’yicha quyidagicha tasniflanadi:

statsionar radiatsiyaviy manbalar — foydalanish muddati davomida doimiy joyda ishlashga mo’ljallangan va maxsus jihozlangan inshootlar yoki xonalarni talab qiladigan;

ko’chma radiatsiyaviy manbalar — transport vositalariga o’rnatiladigan hamda harakatlanish yoki tashish uchun moslashtiriladigan;

ko’tarma radiatsiyaviy manbalar — ko’tarish va turli joylarda ishlatish imkonini beradigan, xonalarni qayta jihozlashsiz yoki dala sharoitida foydalaniladigan.

18. Radiatsiyaviy manbalar tarkibiga kiritilgan radionuklid manbai turiga qarab quyidagicha tasniflanishi kerak:

yopiq radionuklid manbai ishlatiladigan radiatsiyaviy manbalar;

ochiq radionuklid manbai ishlatiladigan radiatsiyaviy manbalar.

19. Radiatsiyaviy manbalar tarkibiga kiruvchi tizimlar va elementlar quyidagicha tasniflanishi kerak:

xavfsizlik uchun muhim bo’lgan tizimlar va elementlar;

xavfsizlikka ta'sir ko'rsatmaydigan tizimlar va elementlar.

20. Xavfsizlik uchun muhim bo'lgan tizimlar va elementlar quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

radionuklid manbaini ko'chirish va mahkamlash tizimi;
radiatsiyaviy manbalarni boshqarish tizimi (boshqaruv pulti);
radiatsiyaviy xavf haqida signalizatsiya va ogohlantirish tizimi;
himoya tizimi;
radiatsiyaviy manbalarni jisman himoya qilish to'siqlari;
elektr ta'minoti tizimi;
shamollatish tizimi.

21. Avtomatik xavfsizlik tizimlari (elementlari) bajaradigan vazifalariga qarab quyidagicha tasniflanishi kerak:

himoya tizimlari — avariylar paytida radiatsiyaviy manbalar elementlarining shikastlanishini oldini olishi va xavfsizligini saqlash uchun mo'ljallangan;

lokalizatsiya tizimlari — avariya holatida radioaktiv moddalar va ionlashtiruvchi nurlanishning tarqalishini cheklashi hamda ularning atrof-muhitga chiqishini oldini olish uchun mo'ljallangan;

ta'minlovchi tizimlar — boshqa avtomatik xavfsizlik tizimlarni energiya va zarur ish sharoitlari bilan ta'minlash uchun mo'ljallangan.

22. Radiatsiyaviy manbalar elementlari xavfsizlikka ta'siri bo'yicha quyidagilarga ajratiladi:

1-sinf elementlari — ularning shikastlanishi yoki germetikligi buzilishi avariya olib keladigan hamda xodimlarning doza chegaralaridan yuqori nurlanishiga yoki radioaktiv moddalar chiqishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan;

2-sinf elementlari — ularning nosozliklari avariya olib keladigan hamda xodimlarning doza chegaralaridan yuqori nurlanishiga yoki radioaktiv moddalar chiqishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan;

3-sinf elementlari — ularning nosozliklari normal foydalanishdan chetga chiqishlarga olib keladigan, biroq avariya yoki radioaktiv moddalar chiqishiga sabab bo'lmaydigan.

4-bob. Radiatsiyaviy manbalarni loyihalash, joylashtirish, ishlab chiqarish va qurishda xavfsizlikni ta'minlash

23. Radiatsiyaviy manbalarni loyihalash, joylashtirish, ishlab chiqarish va qurish hamda ular tarkibiga kiruvchi tizimlar va elementlarning xavfsizligini ta'minlash ushbu Qoidalariga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

24. Radiatsiyaviy manbalar xavfsizligi uchun o'z-o'zini himoya qiluvchi, tashqi energiya yoki inson aralashuvisiz ishlaydigan tizimlar va elementlar bilan loyihalanishi shart.

25. Yopiq radionuklidli radiatsiyaviy manbalar loyihalashda quyidagilar ta'minlanishi shart:

ularning parametrlari va xususiyatlari texnologik hujjatlarda belgilangan me'yorlar doirasida saqlanishi;

butun belgilangan foydalanish muddati davomida texnogen va tabiiy tashqi ta'sirlarni hisobga olgan holda saqlanishi.

26. Yopiq radionuklidli radiatsiyaviy manbalar konstruksiyasi loyihada ko'zda tutilgan yong'in, portlash va zarba ta'sirlari sharoitida radiatsiyaviy manbaning xavfsizligini ta'minlashi shart.

27. Statsionar radiatsiyaviy manbalarni jisman himoya to'siqlari loyihalanayotganda ish kamerasiga xavfsiz kirish imkoniyati ko'zda tutilishi shart.

Ish kamerasi himoya eshigining konstruksiyasi uning ichkaridan ochilish imkoniyatini ta'minlashi kerak.

28. Radiatsiyaviy manbalarni jisman himoya qilish to'siqlari hududida effektli doza chegaralari SanQvaM 0193-06-son "Radiatsiya xavfsizligi normalari (RXN 2006) va Radiatsiya xavfsizligini ta'minlashning asosiy sanitar qoidalari (RXTASQ 2006)"ga muvofiq bo'lishi kerak.

29. Radiatsiyaviy manbalarning himoyasida transport, texnologik va boshqa tizimlar uchun mo'ljallangan kanallar hamda teshiklarning konstruksiyasi quyidagilarni ta'minlashi shart:

xodimlar bo'lishi mumkin bo'lgan xonalarda, ionlashtiruvchi nurlanish chiqishi ehtimoli bo'lgan joylarda nurlanish dozasi nazorat qilinishini;

nurlanish dozasi SanQvaM 0193-06-son "Radiatsiya xavfsizligi normalari (RXN 2006) va Radiatsiya xavfsizligini ta'minlashning asosiy sanitar qoidalari (RXTASQ 2006)"ga muvofiq bo'lishini.

30. Statsionar radiatsiyaviy manbalar joylashgan ish kameralari shamollatish tizimi bilan jihozlanishi kerak.

31. Statsionar radiatsiyaviy manbalar loyihasida quyidagi holatlarning yuz berishini oldini oluvchi himoya tizimi joriy etilishi shart:

yopiq radionuklid manbai (nurlantirgich) ish holatida bo'lganida, elektr ta'minoti uzilishi natijasida ish kamerasining himoya eshigi ochilishi;

shamollatish tizimi ishlamayotgan, himoya eshigi ochiq bo'lgan yoki radiatsiyaviy nazorat tizimi ishlamayotgan holatda nurlantirgichning ish holatiga o'tkazilishi.

32. Statsionar radiatsiyaviy manbalar saqlash holatiga o'tkazish tizimlari quyidagi holatlarda ishga tushishi lozim:

himoya tizimi nosozliklari;

elektr ta'minoti uzilishi;

radiatsiyaviy manbalar yong'ini;

avariya rivojlanishi ehtimoli;

loyihada hisobga olingan boshqa dastlabki hodisalar.

33. Statsionar radiatsiyaviy manbalar loyihasida boshqaruv pultiga quyidagi ma'lumotlar uzatilishi kerak:

radiatsiyaviy manbalarning ishlash holati;

nurlantirgichning holati;

shamollatish tizimining ishlashi;

ish kamerasi va unga tutash xonalardagi nurlanish dozasi quvvati va uning o'zgarishi;

yong'in yuzaga kelishi;

himoya tizimining nosozligi.

34. Radiatsiyaviy manbalar boshqaruv pulti faqat maxsus kalit bilan yoqilishi va o'chirilganda nurlantirgich avtomatik xavfsiz holatga o'tishi shart.

35. Radiatsiyaviy manbalar boshqaruv pulti joylashgan xona ekspluatatsiya qiluvchi tashkilotning avariya xizmatlari bilan doimiy aloqa vositalari bilan jihozlanishi kerak.

36. Statsionar radiatsiyaviy manbalar ish kamerasining kirish qismida va boshqaruv pultida nurlantirgich holatini bildiruvchi ogohlantiruv chiroqlari o'rnatilishi kerak.

37. Radiatsiyaviy manbalar blokidan chiqayotgan nurlanishni nazorat qiluvchi ko'rsatkich tizimi radiatsiyaviy manbalar ish yoki saqlash holatini o'zgartiruvchi boshqaruv tizimidan mustaqil bo'lishi lozim.

38. Ko'tarma radiatsiyaviy manbalar mexanik yoki elektr signalizatsiya tizimlari bilan, ko'chma radiatsiyaviy manbalar esa mexanik, elektr yoki radiometrik signalizatsiya tizimlari bilan jihozlanishi shart.

5-bob. Radiatsiyaviy manbalarni ishga tushirish va foydalanishda xavfsizlikni ta'minlash

39. Radiatsiyaviy manbalarni ishga tushirishdan oldin radiatsiyaviy nazorat tizimi ishga tushirilishi kerak.

40. Ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot tomonidan radiatsiyaviy manbalarni ishga tushirishdan oldin sozlash ishlari, tizimlar va elementlarning kompleks sinovi bo'yicha quyidagilar ishlab chiqilishi kerak:

radiatsiyaviy xavfli ishlarning ro'yxati;

avariyalarni oldini olish choralari ro'yxati.

41. Radiatsiyaviy manbalar tizimlari va elementlari foydalanilishidan oldin loyiha hujjatlariga muvofiqligi ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot tomonidan o'rganilishi kerak.

42. Ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot radiatsiyaviy manbalar bilan ishlovchi va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar uchun nurlanish dozalari hisobini yuritishni ta'minlashi shart.

43. Radiatsiyaviy manbalardan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalarda quyidagilar belgilanishi shart:

radiatsiyaviy manbalarni jisman himoya qilish to'siqlari yaxlitligi va samaradorligini nazorat qilish choralarini ko'rish;

nazorat choralarining aniq davriyligi;

radiatsiyaviy manbalar xavfsiz foydalanish chegaralarining buzilishiga olib keluvchi chetlanishlarni oldini olishga qaratilgan choralarni ko'rish.

44. Radiatsiyaviy xavf darajasi bo'yicha 1 va 2-toifaga kiruvchi radiatsiyaviy manbalar uchun sanitariya-himoya zonasi hamda kuzatuv zonasidagi radiatsiyaviy holat doimiy yoki davriy o'lchovlar orqali nazorat qilinishi shart.

45. Radiatsiyaviy manbalarni foydalanishga kiritish ishlari natijalariga ko'ra topshirish-qabul qilish dalolatnomasi tuzilishi shart.

46. Har qanday radiatsiyaviy xavf toifasidagi manbalar uchun avariya va xodimlarni himoya qilish rejasi ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot tomonidan ishlab chiqilishi lozim.

6-bob. Radiatsiyaviy manbalarni foydalanishdan chiqarishda xavfsizlikni ta'minlash

47. Radiatsiyaviy manbalarni foydalanishdan chiqarish to'g'risidagi qaror ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot tomonidan qabul qilinishi shart.

48. Radiatsiyaviy manbalarni foydalanishdan chiqarish to'g'risidagi qaror chiqarishga quyidagilar asos hisoblanadi:

radiatsiyaviy manbalardan foydalanishga yaroqsiz ekanligi;

radiatsiyaviy manbalarni ta'mirlashning imkonsizligi.

49. Radiatsiyaviy manbalarni foydalanishdan chiqarish ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot tomonidan ularni tekshirish natijalariga ko'ra amalga oshiriladi.

50. Radiatsiyaviy xavf bo'yicha 1 va 2-toifaga kiruvchi radiatsiyaviy manbalar uchun ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot ularning xizmat muddati tugashidan kamida bir yil oldin radiatsiyaviy manbalarni foydalanishdan chiqarish dasturini ishlab chiqishni ta'minlashi lozim.

51. Radiatsiyaviy xavf bo'yicha 3 va 4-toifaga kiruvchi radiatsiyaviy manbalar uchun ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot ularning xizmat muddati tugashidan kamida olti oy oldin radiatsiyaviy manbalarni foydalanishdan chiqarish dasturini ishlab chiqishni ta'minlashi lozim.

52. Radiatsiyaviy manbalarni foydalanishdan chiqarish loyihasida quyidagilar keltirilishi lozim:

bajariladigan ishlarning turlari;

ishlarning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar;

ishlarning bajarilish ketma-ketligi;

har bir foydalanishdan chiqarish bosqichida zarur bo'lgan inson, moliyaviy va moddiy-texnik resurslar hamda ularning asoslanishi;

xodimlar malakasiga qo'yiladigan talablar ro'yxati.

53. Radiatsiyaviy manbalarni foydalanishdan chiqarishda xonalar va saqlash joylarida vaqtincha saqlanadigan radioaktiv chiqindilar va radioaktiv materiallarning hisobi va nazorati amalga oshirilishi lozim.

54. Radiatsiyaviy manbalarni foydalanishdan chiqarishda xodimlar ish joylariga kirish va radioaktiv chiqindilarning jisman himoyasi ta'minlanishi lozim.

55. Radiatsiyaviy manbalarni jisman himoya, shamollatish, yong'in o'chirish va radiatsiyaviy nazorat tizimlari demontaji radiatsiyaviy manbalarni foydalanishdan chiqarish yakunida amalga oshirilishi lozim.

7-bob. Yakunlovchi qoida

56. Ushbu Qoidalar talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javob beradi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI BOSHQARUV SAMARADORLIGI
AGENTLIGI DIREKTORINING
BUYRUG'I

673 Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlari faoliyatining samaradorligini eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) asosida baholashning namunaviy tartibini tasdiqlash to'g'risida*

*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil
28-oktabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3696*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 7-avgustdagi PF-129-son "Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hamda tuman (shahar) hokimliklari xodimlarining mehnatiga haq to'lash va ularni moddiy rag'batlantirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq **buyuraman:**

1. Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlari faoliyatining samaradorligini eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) asosida baholashning namunaviy tartibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur buyruq O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi hamda O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi bilan kelishilgan.

3. Ushbu buyruq 2025-yil 21-noyabrdan boshlab kuchga kiradi.

Direktor v.b.

U. XUSAINOV

Toshkent sh.,
2025-yil 16-oktabr,
2-2025-son

Kelishildi:

Iqtisodiyot va moliya vaziri

D. KUCHKAROV

2025-yil 12-sentabr

***Kambag'allikni qisqartirish
va bandlik vaziri***

B. ZAXIDOV

2025-yil 23-sentabr

Raqamli texnologiyalar vaziri

Sh. SHERMATOV

2025-yil 4-oktabr

* Ushbu buyruq «Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi»da 2025-yil 29-oktabrda e'lon qilingan.

*O'zbekiston Kasaba uyushmalari
Federatsiyasi raisi*

K. RAFIKOV

2025-yil 10-oktabr

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi Boshqaruv samaradorligi
agentligi direktorining 2025-yil 16-oktabrdagi
2-2025-son buyrug'iga
ILOVA

**Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlari
faoliyatining samaradorligini eng muhim samaradorlik
ko'rsatkichlari (KPI) asosida baholashning
NAMUNAVIY TARTIBI**

Ushbu Namunaviy tartib Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hamda tuman (shahar) hokimliklari boshqaruv xodimlari (bundan buyon matnda hokimlik xodimlari deb yuritiladi) faoliyatining samaradorligini eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) (bundan buyon matnda samaradorlik ko'rsatkichlari deb yuritiladi) asosida baholash tartibini belgilaydi.

Mazkur Namunaviy tartibning amal qilishi Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reyestriga kiritilgan lavozimlardagi hokimlik xodimlari faoliyatini samaradorlik ko'rsatkichlari asosida baholash bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hamda tuman (shahar) hokimliklarining o'z ichki tartibini belgilashga nisbatan tatbiq etiladi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri, tuman (shahar) hokimliklari tarkibiy bo'linmalari rahbarlari faoliyati samaradorlik ko'rsatkichlarining namunaviy shakllari ushbu Namunaviy tartibning 1-ilovasida* hamda hokimlik xodimlari faoliyati samaradorlik ko'rsatkichlarining namunaviy shakllari ushbu Namunaviy tartibning 2-ilovasida* belgilangan.

2. Samaradorlik ko'rsatkichlari quyidagi talablarga javob berishi kerak:

aniq bo'lishi — erishish ko'zlanayotgan samaradorlik ko'rsatkichlarining aniq belgilanishi;

vaqt chegarasining mavjudligi — ko'zlanayotgan natijalarga erishishning aniq muddatlari belgilanishi;

kompetentligi — samaradorlik ko'rsatkichlari hokimlik xodimlarining vazifa va javobgarligi doirasida bo'lishi;

maqsadliligi — samaradorlik ko'rsatkichlari mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organining asosiy vazifalarini amalga oshirishdan kutilayotgan natijalarga erishishga yo'naltirilganligi;

* 1-2-ilovalar «Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi»da e'lon qilingan.

erishish mumkinligi — samaradorlik ko'rsatkichlarining mavjud resurs va vakolatlarga muvofiqligi;

o'lchanadigan bo'lishi — samaradorlik ko'rsatkichlariga erishish darajasini baholash uchun muayyan shartli birliklarda o'lchash mumkin bo'lgan ko'rsatkichlardan foydalanish.

2-bob. Hokimlik xodimlari faoliyatining samaradorlik ko'rsatkichlarini ishlab chiqish va tasdiqlash

3. Hokimlik xodimlari faoliyatining samaradorlik ko'rsatkichlarini ishlab chiqish, tasdiqlash va ularni baholash ushbu Namunaviy tartibning 3-ilovasidagi* sxemaga asosan "samaradorlik.uz" elektron platformasi (bundan buyon matnda platforma deb yuritiladi) orqali amalga oshiriladi.

4. Samaradorlik ko'rsatkichlari har yil uchun ishlab chiqilib, tasdiqlanadi hamda uning ijrosi har chorak va yil yakuni bo'yicha baholanadi.

5. Samaradorlik ko'rsatkichlarining har biri uchun bitta o'lchov birligidan foydalaniladi.

6. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri, tuman (shahar) hokimliklarining tarkibiy bo'linmalariga yuklatilgan vazifa va funksiyalardan kelib chiqib belgilanadigan samaradorlik ko'rsatkichlarining hamda maxsus baholash shaklidagi samaradorlik ko'rsatkichlarining vazni ularning muhimligi, murakkabligi va ularni bajarish uchun sarflanadigan vaqtdan kelib chiqib belgilanadi.

Har bir hokimlik xodimi faoliyati samaradorlik ko'rsatkichlarining chorak yakuni uchun umumiy vazni 100 ga teng bo'ladi, bundan hokimlik xodimlarining tashabbuskorligi uchun belgilangan vaznlar mustasno.

7. Samaradorlik ko'rsatkichlarining prognozi kelgusi yil uchun progressiv ko'rsatkichlar uchun o'sib boruvchi hamda regressiv ko'rsatkichlar uchun pasayib boruvchi yakun bilan belgilanadi.

8. Samaradorlik ko'rsatkichlari bajarilishi to'g'risidagi ma'lumot avtomatik tarzda yoki tasdiqlash orqali shakllantiriladi.

9. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri, tuman (shahar) hokimlari qarori bilan hokimlik xodimlari faoliyati samaradorligini baholash jarayonini tashkil qilish va monitoring qilish bo'yicha mas'ul tarkibiy tuzilma (qoida tariqasida, Axborot-tahlil guruhlar) (bundan buyon matnda mas'ul tarkibiy tuzilma deb yuritiladi) belgilanadi.

10. Mas'ul tarkibiy tuzilmaning baholash jarayonini tashkil qilish va monitoring qilish doirasidagi vazifalari quyidagilardan iborat hisoblanadi:

hokimlik xodimlari faoliyatining samaradorlik ko'rsatkichlari to'g'ri va sifatli ishlab chiqilishini muvofiqlashtirish;

hokimlik xodimlari orasida baholash tizimining mohiyati, ahamiyati va amaliyotda to'g'ri qo'llanishi bo'yicha tushuntirishlar olib borish;

platformaning moderatori sifatida undagi sozlamalarni to'g'rilash, samaradorlik ko'rsatkichlarining maqsadli ko'rsatkichlari va amaldagi natijalarning o'z vaqtida platformaga kiritilishini monitoring qilish.

* 3-ilova «Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi»da e'lon qilingan.

11. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri, tuman (shahar) hokimliklarining tarkibiy bo‘linmalariga yuklatilgan vazifa va funksiyalardan kelib chiqib belgilanadigan samaradorlik ko‘rsatkichlari ushbu Namunaviy tartibning 4-ilovasiga* muvofiq shaklda hamda maxsus baholash shaklidagi samaradorlik ko‘rsatkichlari ushbu Namunaviy tartibning 5-ilovasiga* muvofiq shaklda quyidagilar tomonidan tasdiqlanadi:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari xodimlarining samaradorlik ko‘rsatkichlari har yili 15-yanvarga qadar tegishli ravishda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari tomonidan, bundan ushbu hokimliklarning faoliyat samaradorligi natijasi avtomatik tarzda shakllanadigan xodimlari mustasno;

tuman (shahar) hokimliklari xodimlarining samaradorlik ko‘rsatkichlari har yili 25-yanvarga qadar tuman (shahar) hokimlari tomonidan, bundan ushbu hokimliklarning faoliyat samaradorligi natijasi avtomatik tarzda shakllanadigan xodimlari mustasno.

Bunda, ushbu samaradorlik ko‘rsatkichlari mas‘ul tarkibiy tuzilma tomonidan har yili 1-fevralga qadar platformaga kiritiladi.

12. Platformadagi va qog‘ozda tasdiqlangan samaradorlik ko‘rsatkichlari o‘rtasida tafovut bo‘lgan taqdirda, platformadagi samaradorlik ko‘rsatkichlari qo‘llaniladi.

13. Samaradorlik ko‘rsatkichlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish tegishli ravishda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri, tuman (shahar) hokimlari qarori asosida mas‘ul tarkibiy tuzilma tomonidan amalga oshiriladi.

3-bob. Hokimlik xodimlari faoliyatining samaradorlik ko‘rsatkichlari bajarilishi darajasini baholash

14. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri, tuman (shahar) hokimliklarining tarkibiy bo‘linmalariga yuklatilgan vazifa va funksiyalardan kelib chiqib belgilanadigan samaradorlik ko‘rsatkichlarining bajarilishi darajasi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar hokimlik xodimlari tomonidan hisobot davridan keyingi oyning 20-sanasiga qadar platformaga kiritiladi, bundan avtomatik tarzda shakllanadigan samaradorlik ko‘rsatkichlari mustasno.

15. Platformaga kiritilgan samaradorlik ko‘rsatkichlarining bajarilishi darajasi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar samaradorlik ko‘rsatkichlarini baholashga mas‘ul shaxslar (bundan buyon matnda baholovchi mas‘ullar deb yuritiladi) tomonidan hisobot davridan keyingi oyning 25-sanasiga qadar tasdiqlanadi yoki rad etiladi.

Bunda, samaradorlik ko‘rsatkichlarining bajarilishi darajasi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar baholovchi mas‘ullar tomonidan rad etilgan taqdirda, hokimlik xodimi ushbu ma‘lumotlarni ular rad etilgan kundan boshlab 3 kun muddat ichida qayta tahrirlab kiritishi mumkin.

16. Maxsus baholash shaklidagi samaradorlik ko‘rsatkichlarining bajarilishi darajasi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar ushbu Namunaviy tartibning 5-ilovasiga muvofiq shaklda baholovchi mas‘ullar tomonidan hisobot davridan keyingi oyning

* 4-5-ilovalar «Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi»da e‘lon qilingan.

20-sanasiga qadar platformaga kiritiladi, bunda ushbu ma'lumotlarni tasdiqlash talab etilmaydi.

17. Hokimlik xodimlarining ijro intizomiga rioya qilishi ushbu Namunaviy tartibning 6-ilovasiga* muvofiq shaklda Ijro intizomi nazorati bo'limi/ijro intizomi bo'linmasi tomonidan hisobot davridan keyingi oyning 20-sanasiga qadar platformada baholanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri, tuman (shahar) hokimliklarining tarkibiy bo'linma rahbarlarining ijro intizomiga rioya qilishi natijasi ushbu tarkibiy bo'linmadagi xodimlarning o'rtacha natijasidan kelib chiqib avtomatik tarzda shakllanadi, tarkibiy bo'linmada faqat rahbar faoliyat yuritgan hollar bundan mustasno.

18. Hokimlik xodimlarining mehnat intizomiga rioya qilishi ushbu Namunaviy tartibning 7-ilovasiga* muvofiq shaklda Tashkiliy-kadrlar guruhi tomonidan hisobot davridan keyingi oyning 20-sanasiga qadar platformada baholanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri, tuman (shahar) hokimliklaridagi tarkibiy bo'linma rahbarlarining mehnat intizomiga rioya qilishi natijasi tarkibiy bo'linmadagi xodimlarning o'rtacha natijasidan kelib chiqib avtomatik tarzda shakllanadi, tarkibiy bo'linmada faqat rahbar faoliyat yuritgan hollar bundan mustasno.

19. Hokimlik xodimlari tomonidan o'zlarining tashabbuskorligi to'g'risidagi tasdiqlovchi ma'lumotlarning elektron (pdf) shakli hisobot davridan keyingi oyning 10-sanasiga qadar platformaga kiritiladi.

20. Hokimlik xodimlari tashabbuskorligi platformaga kiritilgan ma'lumotlar asosida hisobot davridan keyingi oyning 20-sanasiga qadar bevosita rahbar tomonidan 10 ballik tizimda baholanadi.

21. Hokimlik xodimlari faoliyati samaradorligini baholash natijalari reytingi platformada barcha samaradorlik ko'rsatkichlari bajarilishi darajasi to'g'risidagi ma'lumotlar ushbu Namunaviy tartibning 1 va 2-ilovalariga muvofiq baholangandan keyin avtomatik tarzda shakllanadi.

22. Hokimlik xodimlari hisobot davri davomida to'liq ish faoliyatini amalga oshirmaganda (yangi ishga qabul qilinganda, mehnatga layoqatsizlik vaqtida, ta'til, malaka oshirish, xizmat safarida bo'lganda, ishchi guruhlariga jalb qilinganda va boshqalar) uning faoliyati samaradorligi intervyu asosida baholanishi mumkin.

Bunda, hokimlik xodimlari faoliyati samaradorligini intervyu asosida baholash bevosita rahbar tomonidan hisobot davri yakuni bilan individual tartibda suhbat o'tkazish va uning natijasi bo'yicha ushbu Namunaviy tartibning 8-ilovasidagi* baholash shaklini to'ldirish orqali amalga oshiriladi.

Shuningdek, hokimlik xodimi lavozimga yangi tayinlanganda intervyu asosida baholanib, ushbu baho natijasi keyingi hisobot davri uchun amalda bo'ladi. Bunda, hokimlik xodimi hisobot davrining uchdan bir qismidan kam faoliyat yuritgan taqdirda ushbu mexanizm qo'llaniladi.

23. Hokimlik xodimlari faoliyati samaradorligining reyting natijalari:

70 balldan kam bo'lganda — “qoniqarsiz” (D);

70 balldan 85 ballgacha — “qoniqarli” (S);

* 6 — 8-ilovalar «Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi»da e'lon qilingan.

85 ball dan 100 ballgacha — “yaxshi” (B);

100 ball va undan yuqori bo‘lganda — “a’lo” (A) deb baholanadi.

24. Hokimlik xodimlariga har oylik ustamalar miqdori hisobot davri yakuni bo‘yicha baholash natijalari reytingi asosida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 7-avgustdagi PF–129-son “Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hamda tuman (shahar) hokimliklari xodimlarining mehnatiga haq to‘lash va ularni moddiy rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq belgilanadi hamda keyingi chorak davomida to‘lab boriladi.

4-bob. Hokimlik xodimlari faoliyatining samaradorligini baholash jarayoni ishtirokchilarining javobgarligi

25. Quyidagilar:

mas’ul tarkibiy tuzilma — hokimlik xodimlari faoliyatining samaradorlik ko‘rsatkichlari o‘z vaqtida platformaga kiritilishiga;

baholovchi mas’ullar — samaradorlik ko‘rsatkichlarining bajarilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z vaqtida kiritishga va ma’lumotlarning haqqoniyligini ta’minlashga;

hokimlik xodimlari — o‘zlariga belgilab berilgan samaradorlik ko‘rsatkichlariga erishilishiga shaxsan mas’ul va javobgar hisoblanadi.

5-bob. Shikoyat qilish tartibi

26. Hokimlik xodimining samaradorlik ko‘rsatkichlari va baholash natijasidan noroziligi bo‘yicha shikoyatini ko‘rib chiqish uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hamda tuman (shahar) hokimlarining qarori bilan toq sonli va kamida besh nafar mutaxassislardan iborat tarkibda komissiya (bundan buyon matnda komissiya deb yuritiladi) tuziladi.

Hokimlik xodimi samaradorlik ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish va ularni baholashga mas’ul bo‘lgan shaxslarning komissiya tarkibiga kiritilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

27. Hokimlik xodimi samaradorlik ko‘rsatkichlari va baholash natijasi bilan tegishli tartibda xabardor qilingan kundan e’tiboran bir oy ichida shikoyat qilishi mumkin.

Bunda, komissiya hokimlik xodimi shikoyat ko‘rib chiqilishidan besh kun oldin uni ko‘rib chiqish vaqti va joyi haqida ogohlantiradi.

28. Komissiya shikoyat kelib tushgan kundan boshlab, o‘n ish kuni ichida mazkur shikoyatni ko‘rib chiqib, qaror qabul qilishi shart.

Bunda, hokimlik xodimi mazkur shikoyatni ko‘rib chiqishda ishtirok etish huquqiga ega.

29. Hokimlik xodimi shikoyat bo‘yicha qaror qabul qilinguniga qadar uni chaqirib olishga haqli. Shikoyatni chaqirib olish yozma yoki elektron shaklda rasmiylashtiriladi.

30. Komissiya shikoyatni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha quyidagi qarorlardan birini qabul qilishga haqli:

tasdiqlangan samaradorlik ko'rsatkichlari va baholash natijasini o'zgarishsiz qoldirish;

tasdiqlangan samaradorlik ko'rsatkichlari va baholash natijasiga o'zgartirishlar kiritish.

31. Shikoyat ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan e'tiboran belgilangan tartibda ko'rib chiqilgunga qadar, samaradorlik ko'rsatkichlari hamda baholash natijasining amal qilishi va ijro etilishi to'xtatib turiladi.

6-bob. Yakunlovchi qoida

32. Ushbu Namunaviy tartib talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javob beradi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MARKAZIY BANKI BOSHQARUVINING
QARORI

**674 Banklar kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar
to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida***

*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil
28-oktabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3697*

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi **qaror qiladi:**

1. Banklar kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizom 1-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.
2. Ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar 2-ilovaga muvofiq o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.
3. Mazkur qaror 2026-yil 1-yanvardan e'tiboran kuchga kiradi.

Rais

T. ISHMETOV

Toshkent sh.,
2025-yil 2-oktabr,
21/6-son

* Ushbu qaror «Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi»da 2025-yil 28-oktabrda e'lon qilingan.

** 1-ilova «Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi»da e'lon qilingan.

O'zbekiston Respublikasi
Markaziy banki boshqaruvinining 2025-yil
2-oktabrdagi 21/6-son qaroriga
2-ILOVA

**O'z kuchini yo'qotgan deb topilayotgan idoraviy
normativ-huquqiy hujjatlar
RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvinining 2015-yil 13-iyundagi 14/3-son "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori (ro'yxat raqami 2693, 2015-yil 6-iyul) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015-y., 27-son, 360-moddada).

2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvinining 2017-yil 24-iyundagi 14/17-son "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish haqida"gi qarori (ro'yxat raqami 2693-1, 2017-yil 7-iyul) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 27-son, 632-moddada).

3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvinining 2017-yil 23-sentabrdagi 26/7-son "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi qarori (ro'yxat raqami 2693-2, 2017-yil 23-oktabr) (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.10.2017-y., 10/17/2693-2/0167-son).

4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvinining 2018-yil 31-martdagi 12/21-son "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qarori (ro'yxat raqami 2693-3, 2018-yil 25-aprel) (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.04.2018-y., 10/18/2693-3/1099-son).

5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvinining 2018-yil 27-oktabrdagi 34/5-son "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qarori (ro'yxat raqami 2693-4, 2018-yil 28-dekabr) (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 28.12.2018-y., 10/18/2693-4/2387-son).

6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvinining 2019-yil 26-yanvardagi 2/3-son "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qarori (ro'yxat raqami 2693-5, 2019-yil 6-mart) (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.03.2019-y., 10/19/2693-5/2722-son).

7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvinining 2019-yil 13-dekabrdagi 30/9-son "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi qarori (ro'yxat raqami 2693-6, 2019-yil 25-dekabr) (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.12.2019-y., 10/19/2693-6/4195-son).

8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvinining 2021-yil 11-yanvardagi 28/22-son "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan

talablar to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qarori (ro'yxat raqami 2693-7, 2021-yil 13-fevral) (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.02.2021-y., 10/21/2693-7/0116-son).

9. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2021-yil 19-noyabrdagi 27/5-son "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish haqida"gi qarori (ro'yxat raqami 2693-8, 2021-yil 10-dekabr) (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.12.2021-y., 10/21/2693-8/1151-son).

10. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2023-yil 2-martdagi 4/12-son "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimcha kiritish haqida"gi qarori (ro'yxat raqami 2693-9, 2023-yil 17-mart) (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.03.2023-y., 10/23/2693-9/0155-son).

11. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2023-yil 28-martdagi 8/11-son "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qarori (ro'yxat raqami 2693-10, 2023-yil 5-aprel) (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2023-y., 10/23/2693-10/0196-son).

12. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2023-yil 6-iyundagi 14/7-son "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish haqida"gi qarori (ro'yxat raqami 2693-11, 2023-yil 17-iyul) (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.07.2023-y., 10/23/2693-11/0493-son).

13. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2024-yil 31-yanvardagi 42/14-son "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qarori (ro'yxat raqami 2693-12, 2024-yil 27-fevral) (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.02.2024-y., 10/24/2693-12/0162-son).

14. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2025-yil 1-apreldagi 7/6-son "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qarori (ro'yxat raqami 2693-13, 2025-yil 21-aprel) (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 22.04.2025-y., 10/25/2693-13/0369-son).

15. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2025-yil 13-iyundagi 12/4-son "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi qarori (ro'yxat raqami 2693-14, 2025-yil 21-iyul) (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 22.07.2025-y., 10/25/2693-14/0639-son).

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MARKAZIY BANKI BOSHQARUVINING
QARORI

675 Bank xizmatlari iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo'yiladigan minimal talablar to'g'risidagi nizomga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish haqida*

*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil
28-oktabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3030-11*

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi **qaror qiladi:**

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2018-yil 28-apreldagi 16/18-son qarori (ro'yxat raqami 3030, 2018-yil 2-iyul) (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.07.2018-y., 10/18/3030/1440-son) bilan tasdiqlangan Bank xizmatlari iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo'yiladigan minimal talablar to'g'risidagi nizomga ilovaga muvofiq qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilsin.

2. Mazkur qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran uch oydan keyin kuchga kiradi.

Rais

T. ISHMETOV

Toshkent sh.,
2025-yil 9-oktabr,
25/1-son

* Ushbu qaror «Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi»da 2025-yil 29-oktabrda e'lon qilingan.

O'zbekiston Respublikasi
Markaziy banki boshqaruvining 2025-yil
9-oktabrdagi 25/1-son qaroriga
ILOVA

**Bank xizmatlari iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni
amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo'yiladigan
minimal talablar to'g'risidagi nizomga kiritilayotgan qo'shimcha va
o'zgartirishlar**

1. 28-band quyidagi mazmundagi xatboshilar bilan to'ldirilsin:

“Banklar kredit ajratish to'g'risida ijobiy qaror qabul qilingandan so'ng, biroq kredit shartnomasi rasmiylashtirilishidan (oferta tasdiqlanishidan) oldin, iste'molchi-jismoniy shaxslarga kredit majburiyatlari bilan bog'liq ehtimoliy tavakkalchiliklar to'g'risidagi mazkur Nizomning 1a-ilovasida keltirilgan shakldagi cheklistni taqdim etishlari shart.

Mazkur cheklist:

bank binosiga tashrif buyurganda, kredit rasmiylashtirish usulidan kelib chiqib — qog'oz yoki elektron shaklda iste'molchi-jismoniy shaxsga taqdim etiladi. Bunda iste'molchi-jismoniy shaxs cheklistdagi har bir bandni o'qib tanishganligini maxsus belgi bilan belgilaydi hamda cheklistni qo'lda imzo qo'yish orqali tasdiqlaydi;

masofaviy xizmat ko'rsatish tizimlari orqali kredit rasmiylashtirilayotganda — iste'molchi-jismoniy shaxs cheklistdagi har bir bandni o'qib tanishganligini maxsus elektron belgi bilan belgilaydi hamda cheklistni tasdiqlash tugmasini bosadi. Bunda barcha belgilarni qo'yish va tasdiqlash tugmasini bosish fakti bankning avtomatlashtirilgan tizimida sana, vaqt, IP-manzil va iste'molchi-jismoniy shaxsning identifikatorlaridan biri ko'rsatilgan holda qayd etilishi lozim.

Cheklist kredit shartnomasi hujjatlari bilan birgalikda bankda yoki bankning axborot tizimlarida saqlanadi. Iste'molchi-jismoniy shaxs cheklistdagi barcha bandlar bilan tanishganligini belgilamaguncha hamda cheklistni tasdiqlamaguncha kredit shartnomasini rasmiylashtirishga yo'l qo'yilmaydi.”.

2. Quyidagi mazmundagi 28¹-band bilan to'ldirilsin:

“28¹. Banklar moliyaviy qiyinchiliklar, murakkab hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan hamda fors-major holatlari tufayli o'z vaqtida kredit to'lovlarini amalga oshirishga qiynalayotgan iste'molchilarning amaldagi kreditlari bo'yicha kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish (restrukturizatsiya) imkoniyatlari borasidagi arizalarini ko'rib chiqish tartibiga ega bo'lishi va ushbu tartibni bankning rasmiy veb-saytida joylashtirishi shart.

Mazkur tartib kamida quyidagilarni o'z ichiga qamrab olishi lozim:

kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishning (restrukturizatsiya) turlari (masalan, kredit to'lovlari muddatini uzaytirish, kredit foiz stavkasini qayta ko'rib chiqish, kredit to'lovlarini kechiktirganlik uchun jarima va penyalar miqdorini kamaytirish va boshqalar);

kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga

(restrukturizatsiyaga) asos bo'ladigan moliyaviy qiyinchiliklar, murakkab hayotiy vaziyatlar hamda fors-major holatlar ro'yxati;

iste'molchining arizalarini qabul qilish, ro'yxatga olish tartibi hamda arizaga ilova qilinadigan zarur hujjatlarning ro'yxati;

iste'molchining arizalarini ko'rib chiqish muddatlari;

qabul qilingan arizalarni ko'rib chiqish va baholash mezonlari;

ariza bo'yicha bank tomonidan qabul qilingan qaror haqida iste'molchiga xabar berish tartibi va muddati;

ariza qanoatlantirilgan taqdirda, kredit shartnomasi hamda uning ilovalariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish tartibi;

arizani qanoatlantirishni rad etish bo'yicha qaror qabul qilinganda, bu to'g'risida asoslantirilgan holda arizachiga xabar berish tartibi.

Bunda ushbu tartibda homiladorlik va tug'ish ta'tilini olgan ayollarning amaldagi kreditlari bo'yicha to'lovlar muddatini o'n oygacha uzaytirish to'g'risidagi arizalarini ko'rib chiqish bo'yicha qoidalar majburiy tarzda aks ettirilishi lozim.”.

3. 33-bandda:

quyidagi mazmundagi beshinchi — yettinchi xatboshilar bilan to'ldirilsin:

“iste'molchilarga kredit olish bo'yicha arizasida (so'rovida) ko'rsatilgan miqdordan ortiqcha summada kredit taklif etish hamda uni olishga undash;

kredit qarzdorliklarini davlat tomonidan fuqarolarga ajratiladigan ijtimoiy nafaqa va yordam mablag'lari, shu jumladan ijtimoiy karta hisobvarag'iga kelib tushadigan mablag'lar hisobidan undirish;

kredit shartnomasida yoki unga ilova qilingan kreditni qaytarish jadvalida to'lovlar bo'yicha belgilangan kalendar sanaga qadar kredit to'lovlarini undirishga talab qo'yish, bundan iste'molchi tomonidan bankning avtoto'lov xizmatidan foydalanish davrida kredit to'lovlarining yechib olinishi hamda qonunchilikda belgilangan boshqa holatlar mustasno;”;

beshinchi xatboshi tegishli ravishda sakkizinchi xatboshi deb hisoblansin.

4. Quyidagi mazmundagi 35³ va 35⁴-bandlar bilan to'ldirilsin:

“35³. Banklar tomonidan moliyaviy xizmatlar ko'rsatish jarayonida, shuningdek bankning masofaviy xizmat ko'rsatish tizimlari orqali xizmatlar ko'rsatilayotgan paytda quyidagi holatlarning joriy etilishiga yo'l qo'yilmaydi:

iste'molchining xohish-irodasini ifodalovchi har qanday belgilarni (masalan, belgi qo'yish maydonchalari, siljitma tugmalar va shunga o'xshashlarni) oldindan o'rnatib qo'yish yoki tanlab qo'yish;

kredit parametrlari ko'rsatilgan maydonchalarni, shu jumladan kredit summasi, muddati hamda tegishli arizadagi iste'molchining daromadi to'g'risidagi ma'lumotlarni oldindan to'ldirish.

Bunda agar bank iste'molchiga tegishli tanlovni taklif qilsa, unga kreditni rasmiylashtirish jarayonida mustaqil ravishda belgini qo'yish, kredit parametrlarini mustaqil belgilash va boshqa maydonchalarni to'ldirish imkoniyati berilishi kerak (masalan, kredit byurosidan kredit hisobotini so'rash, reklama tusidagi axborotni yuborish, masofaviy moliyaviy xizmatni ulash, bank xizmatlarining umumiy shartlari bilan tanishganligini tasdiqlash, bank tariflarini qabul qilish va shunga o'xshash belgilar).

35⁴. Banklarning masofaviy xizmat ko'rsatish tizimlari orqali xizmatlar ko'rsatilayotgan hollarda, agar iste'molchi taklif etilayotgan shartnomaning (ofertaning) barcha sahifalarini (qismlarini) to'liq ko'zdan kechirmagan bo'lsa, xizmat ko'rsatish shartlariga rozilikni bildiruvchi tugmani bosish imkoniyati berilmasligi shart.”.

5. 3-bob quyidagi mazmundagi 3-paragraf bilan to'ldirilsin:

“3-§. Omonatlarni kafolatlash tizimi to'g'risida xabardor etish

40². Banklar quyidagi axborotlarni iste'molchilarga tarqatish bo'yicha zarur choralarni ko'rishi shart:

bankning omonatlarni kafolatlash tizimida ishtirok etishi to'g'risidagi axborotlar;

kafolatlash obyektlari, kafolatlangan omonatlar, shuningdek kafolatlash obyekti hisoblanmaydigan mablag'lar to'g'risidagi axborotlar;

kompensatsiyalarni to'lash tartibi, shu jumladan ularni to'lashning usullari va muddatlari to'g'risidagi axborotlar;

40³. Mazkur Nizomning 40²-bandida nazarda tutilgan axborotlar bank tomonidan quyidagi shakllarda tarqatilishi shart:

bankning axborot stendlari va rasmiy veb-saytida joylashtirish orqali;

administratorlar orqali, shu jumladan bank omonati (depoziti) shartnomasi va (yoki) bank hisobvarag'i shartnomasini tuzish jarayonida hamda iste'molchining so'roviga asosan;

masofaviy xizmat ko'rsatish tizimlari orqali.

40⁴. Bankning rasmiy veb-saytida omonatlar to'g'risidagi axborot joylashtirilgan sahifada “Omonatlaringiz kafolatlangan” degan mazmunda ko'zga tashlanadigan tegishli havola (giperhavola) joylashtirishi va ushbu tegishli havola (giperhavola) Omonatlarni kafolatlash agentligining rasmiy veb-saytidagi tegishli sahifaga yo'naltirilishi kerak.

40⁵. Bank omonati (depoziti) shartnomasi yoki bank hisobvarag'i shartnomasini tuzish jarayonida administratorlar omonatchini mazkur Nizomning 3b-ilovasida keltirilgan shaklga muvofiq omonatlarni kafolatlash tizimi haqidagi ma'lumot bilan imzo qo'ydirib tanishtirishi shart.

Mazkur Nizomning 3b-ilovasida ko'rsatilgan ma'lumotning bir nusxasi bank tomonidan omonatchiga beriladi, ikkinchi nusxasi esa omonatchining mazkur axborot bilan tanishganligini tasdiqlovchi hujjat sifatida har bir mijoz uchun shakllantiriladigan yig'ma jildda saqlanadi.

Omonatchi masofaviy xizmat ko'rsatish tizimlari orqali omonat (depozit) qo'ygan yoki bank hisobvarag'ini ochgan taqdirda, bank mazkur Nizomning 3b-ilovasida nazarda tutilgan axborotni omonatchiga taqdim etishi, shuningdek shartnoma tuzilishidan oldin mazkur axborot bilan tanishganligini tasdiqlash imkoniyatini yaratishi shart.

40⁶. Administratorlar iste'molchiga omonatlarni kafolatlash tizimi haqidagi axborotni oddiy va tushunarli shaklda taqdim etishi kerak.

Agar administrator omonatlarni kafolatlash tizimi haqidagi savollarga javob berishda qiynalsa, bunday holda u iste'molchiga batafsilroq ma'lumot olish uchun

to'g'ridan-to'g'ri Omonatlarni kafolatlash agentligiga murojaat qilishni tavsiya etishi lozim."

6. 1-ilovaning 2-bandi to'rtinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"uchinchi shaxslar foydasiga amalga oshiriladigan to'lovlar, agar bunday to'lovlar kredit shartnomasi shartlariga muvofiq iste'molchining majburiyatlariga kirsa, shuningdek, quyidagi to'lovlar:".

7. Mazkur qo'shimcha va o'zgartirishlarning 1 va 2-ilovalariga* muvofiq tahrirdagi 1a va 3b-ilovalar bilan to'ldirilsin.

* Ilovalar «Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi»da e'lon qilingan.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
BOSH PROKURATURASI HUZURIDAGI IQTISODIY
JINOYATLARGA QARSHI KURASHISH
DEPARTAMENTI BOSHLIG'INING
BUYRUG'I

676 Qimmatbaho metall va qimmatbaho toshlar bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarni amalga oshiruvchi shaxslar uchun jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida*

*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil
30-oktabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2034-8*

O'zbekiston Respublikasining "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-iyundagi 402-son "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar haqida"gi qaroriga muvofiq **buyuraman:**

1. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti boshlig'ining 2009-yil 13-oktabrdagi 36-son buyrug'i (ro'yxat raqami 2034, 2009-yil 3-noyabr) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009-y., 45-son, 492-modda) bilan tasdiqlangan Qimmatbaho metall va qimmatbaho toshlar bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarni amalga oshiruvchi shaxslar uchun jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalariga ilovaga muvofiq o'zgartirishlar kiritilsin.

2. Mazkur buyruq O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishilgan.

3. Ushbu buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Boshliq

J. XATAMOV

Toshkent sh.,
2025-yil 23-oktabr,
47-son

* Ushbu buyruq «Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi»da 2025-yil 30-oktabrda e'lon qilingan.

Kelishildi:

Iqtisodiyot va moliya vaziri

J. KUCHKAROV

2025-yil 22-oktabr

O'zbekiston Respublikasi
Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyslarga qarshi kurashish departamenti
boshlig'ining 2025-yil 23-oktabrdagi
47-son buyrug'iga
ILOVA

**Qimmatbaho metall va qimmatbaho toshlar bilan bog'liq
bo'lgan operatsiyalarni amalga oshiruvchi shaxslar uchun jinoiy
faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni
moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni
moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat
qoidalariga kiritilayotgan o'zgartirishlar**

1. Muqaddima quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mazkur Qoidalar qimmatbaho metall va qimmatbaho toshlar bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarni amalga oshiruvchi shaxslar uchun jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazoratni tashkil qilish va amalga oshirish tartibini belgilaydi.”.

2. 22-bandning birinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“22. Shubhali operatsiyalar haqidagi ma'lumotlar qimmatbaho metall va qimmatbaho toshlar bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarni amalga oshiruvchi shaxslar tomonidan maxsus vakolatli davlat organiga shubhali operatsiyalar deb topilgan paytdan e'tiboran bir ish kunidan kechiktirmay Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog'liq shubhali operatsiyalar haqidagi xabar va unga ilova qilinadigan ma'lumotlarning namunaviy shakli hamda hujjatlar ro'yxatida (ro'yxat raqami 3419, 2023-yil 7-fevral) belgilangan shaklda taqdim etiladi.”.

**Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигининг
вазирликлар, давлат қўмиталари ва идораларнинг
норматив-ҳуқуқий ҳужжатларини давлат рўйхатидан
ўтказиш ҳолати тўғрисида
МАЪЛУМОТИ**

1. Давлат рўйхатидан ўтказилди:

1. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 18-oktabrdagi 405-son "Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi buyrug'i.

2025-yil 28-oktabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 1812-2.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Elektr energiyasi, neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi boshlig'ining 2025-yil 22-oktabrdagi 12-son "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Elektr energiyasi, neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi tomonidan qabul qilingan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida"gi buyrug'i.

2025-yil 28-oktabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2871-2.

3. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025-yil 3-oktabrdagi 12-mh-son, Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 29-sentabrdagi 291-son, Sog'liqni saqlash vazirligining 2025-yil 26-sentabrdagi 11-son "Umumta'lim muassasalarida sinflarni komplektlash hamda tarifikatsiya ro'yxatlarini shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi qarori.

2025-yil 28-oktabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3271-1.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasining 2025-yil 10-oktabrdagi 25-son "Radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo'lishning xavfsizlik talablarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.

2025-yil 28-oktabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3694.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasining 2025-yil 13-oktabrdagi 24-son "Radiatsiyaviy manbalar xavfsizligini ta'minlash qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.

2025-yil 28-oktabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3695.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Boshqaruv samaradorligi agentligi direktorining 2025-yil 16-oktabrdagi 2-2025-son "Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlari faoliyatining samaradorligini eng muhim

samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) asosida baholashning namunaviy tartibini tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'i.

2025-yil 28-oktabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3696.

7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2025-yil 2-oktabrdagi 21/6-son "Banklar kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori.

2025-yil 28-oktabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3697.

8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2025-yil 9-oktabrdagi 25/1-son "Bank xizmatlari iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo'yiladigan minimal talablar to'g'risidagi nizomga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish haqida"gi qarori.

2025-yil 28-oktabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3030-11.

9. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti boshlig'ining 2025-yil 23-oktabrdagi 47-son "Qimmatbaho metall va qimmatbaho toshlar bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarni amalga oshiruvchi shaxslar uchun jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi buyrug'i.

2025-yil 30-oktabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2034-8.

II. Davlat reyestridan chiqarildi:

1. Elektr energetikada nazorat bo'yicha davlat inspeksiyasi boshlig'ining 2017-yil 6-martdagi 2-son "Elektr energiyasini elektr tarmoqlari bo'ylab uzatish va taqsimlashda texnologik yo'qotishlarning normativlarini hisoblash tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi buyrug'i (ro'yxat raqami 2871, 2017-yil 31-mart), shuningdek unga kiritilgan o'zgartirish (ro'yxat raqami 2871-1, 2018-yil 14-iyul).

2025-yil 28-oktyabrda davlat reyestridan chiqarildi.

2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2015-yil 13-iyundagi 14/3-son "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori (ro'yxat raqami 2693, 2015-yil 6-iyul), shuningdek unga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar (ro'yxat raqami 2693-1, 2017-yil 7-iyul), (ro'yxat raqami 2693-2, 2017-yil 23-oktabr), (ro'yxat raqami 2693-3, 2018-yil 25-aprel), (ro'yxat raqami 2693-4, 2018-yil 28-dekabr), (ro'yxat raqami 2693-5, 2019-yil 6-mart), (ro'yxat raqami 2693-6, 2019-yil 25-dekabr), (ro'yxat raqami 2693-7, 2021-yil 13-fevral), (ro'yxat raqami 2693-8, 2021-yil 10-dekabr), (ro'yxat raqami 2693-9, 2023-yil 17-mart), (ro'yxat raqami 2693-10, 2023-yil 5-aprel), (ro'yxat raqami 2693-11, 2023-yil 17-iyul), (ro'yxat raqami 2693-12, 2024-yil 27-fevral), (ro'yxat raqami 2693-13, 2025-yil 21-aprel), (ro'yxat raqami 2693-14, 2025-yil 21-iyul).

2026-yil 1-yanvarda davlat reyestridan chiqariladi.

Мазкур ҳужжатлар қонунчиликка ўзгартириш киритилиши ва/ёки янги норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилиниши муносабати билан давлат реестридан чиқарилди.

